**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**QISNLOQ VA SUV XO’JALIGI VAZIRLIGI**
**SAMARQAND QISNLOQ XO’JALIK INSTITUTI**
**Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti**

**“TASDIQLAYMAN”**
**Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti dekani, dotset**
**_________ F.B. Ahrorov**
**“___” _______ ___2014 yil**

**“Yaylov chorvachiligi va hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi” kafedrasi**

**5610100-“Fermer xo‘jaligini boshqarish va yuritish” yo‘nalishi bo‘yicha**

# BITIRUV MALAKAVIY ISNI

**Mavzu: «Qo‘zilarning o‘sish va rivojlanishiga ona qo‘ylarni bo‘g‘ozlik davrida to‘liq qiymatli oziqlantirishning iqtisodiy samaradorligi»**

**Bajardi: 5610100 -“Fermer xo‘jaligini boshqarish va yuritish” yo‘nalishi 4-bosqich 408-guruh talabasi** **Tog‘aev sherali**

**Ilmiy rahbar, q.x.f. nomzodi, katta o’qituvchi** **Qo’ziyev I.**

**Malakaviy ish muhokama qilindi va himoyaga ruhsat beraman**

**Kafedra mudiri, dotsent**
**___________ B.S. Yahyaev**
**“ _____” ________ 2014-yil**

**SAMARQAND – 2014**

PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | KIRISH ........................................................................................ | 3 |
| | Mavzuning dolzarbligi ................................................................ | 8 |
| | Mavzuning ilmiy amaliy ahamiyati ............................................. | 9 |
| I. | Adabiyotlar tahlili ...................................................................... | 11 |
| II. | Xo‘jalik tasnifi ........................................................................... | 41 |
| III. | Tajriba o‘tkazish materiallari va uslubi .................................. | 45 |
| IV. | Asosiy qisim ............................................................................. | 47 |
| 4.1. | CHorvachilikda qo‘ychilikni tutgan o‘rni va rivojlanish yo‘llari | 47 |
| 4.2. | Qo‘ylarning to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabi ............................ | 48 |
| 4.3. | Qorako‘lchilik muammolari va echimlari ........................................ | 49 |
| 4.4. | Bo‘g‘oz sovliqlarni boqish ............................................................. | 55 |
| 4.5. | Qo‘zilarni o‘sish rivojlanishiga ona qo‘ylarni to‘liq qiymatli oziqlantirishning iqtisodiy samaradorligi ............................... | 56 |
| 4.6. | Tajribadagi bo‘g‘oz qo‘ylarni tirik vaznini o‘zgarishi ................. | 59 |
| V. | O‘tkazilgan tajribani iqtisodiy samaradorligi ......................... | 63 |
| VI. | Ekologik muammolar, hayot faoliyati va texnika xafzizligi masalalari ............................................................................................ | 65 |
| 6.1. | Qumli cho‘llarni yaxshilash texnologiyalari ................................... | 65 |
| VII. | Xulosalar, takliflar va ishlab chiqarishga tavsiyalar ................. | 70 |
| VIII. | Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ............................................... | 72 |




PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# KIRISH

O‘rta asrda dehqonchilik bilan, birgalikda chorvachilikning rivojlanishiga ham alohida e’tibor berilgan. CHorva mollari ichida qorako‘l qo‘ylarini urchitish, katta maydondagi yaylovlardan foydalanishda va tannarhi arzon bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarishda muhim ro‘l o‘ynagan.

Qorako‘l qo‘ylari ming yillar moboynida xalq seleksiyasi asosida keltirib chiqarilgan. Ular eksterimal sharoitga moslashish imkoniyatiga ega.

Qorako‘l qo‘ylarining kelib chiqish makoni, Buxora  viloyatining Qorko‘l tumani hisoblanadi. Ularning asosiiy mahsuloti qorako‘l teri bo‘lsada, ulardan yuqori sifatga ega bo‘lgan go‘sht, jun, ichaklaridan tibbiyot jarrohligi uchun ket-kut iplari, shirdonidan pishloq ishlab chiqarishda, shohlaridan turli hildagi taqinchoqlar, tugmalar, shoh qoldiqlari va tuyoqlaridan kley tayyorlanadi.

Qorako‘l qo‘ylarining qora, sur, ko‘k va oq ranglari mavjud bo‘lib, ko‘k va sur qorako‘llarda etti hil rangbaranglik mavjud.

O‘ninchi asrda Buxora va Xivadan keltirilgan qorako‘l teri bilan savdo sotiq ishlari boshlangan. Ular asosan Rossiyaning Tobolski, Tver, Nijniy-Novgorot va Irbit shaharlarida sotilganligini mashhur yozuvchi Marko Polo qayt etadi. Arabistonlik mashhur geograf Ibn-Xoukal qorako‘l terilarda turli hildagi jilo beradigan, xushro‘y tabiiy gullar mavjudligini yozib qoldiradi.

Qorako‘l teri bilan savdo sotiq ishlari jahonda bo‘lib o‘tadigan barcha auksionlarda (Nyuork, Leypsik, London va Sankt-Peterburg) “Buxora-qorako‘l” nomi bilan sotiladi.

Hozirgi kunda 16 tadan ziyot mamlakatda qorako‘l qo‘ylari urchitilmoqda, ammo ularning ichida O‘zbek qorako‘li sifat ko‘rsatgichlari, rangi va rangbarangligi bo‘yicha birinchi o‘rinni egallab kelmoqda. Bugungi kunda har bir qorako‘l terimiz o‘rtacha 25-30 dollordan sotilmoqda.

O‘zbekistonda barcha toifa xo‘jaliklarda 6 mln dan ziyotroq qorako‘l qo‘yi mavjud. 103 ta shirkat xo‘jaligi davlat tasarrufida faoliyat yuritmoqda. 31 ta



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

qorako‘l qo‘ylarining zavod tiplari yaratilgan. Qorako‘l qo‘ylari cho‘l zonasida yashayotgan aholining sotsial masalalarini hal qilishda ham muhim ro‘l o‘ynaydi.

Qorako‘l qo‘ylari O‘zbek xalqining milliy boyligdir.

Qorako‘lchilik chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biridir Qorako‘l qo‘ylar eng qadimgi zot hisoblanib, ular barcha barra terili zotlarning urug‘boshisi hisoblanadi. Ular vujudga kelguncha hozirgi O‘rta Osiyo xududida yashagan qorako‘lchi-chorvadorlarning ko‘p asrlik mehnati sarflangan. O‘zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish bo‘yicha bosqichma – bosqich choralar amalga oshirilib kelinmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar chorvachilikda, shu jumladan qorako‘lchilikda bozor munosabatlariga asoslangan yangi tizimini ishlab chiqish imkonini berdi.

YAngidan qabul qilingan dasturiy hujjatlar, shu jumladan “naslchilik to‘g‘risida” gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi 308-sonli, 2008 yil 21 apreldagi 842-sonli va Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari chorvachilikni rivojlantirishga o‘zining kuchli ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi.

SHu bilan bir qatorda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha Respublikada ishlab chiqilgan 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan xukumat dasturi qabul qilinib, uning bajarilishida yaylov chorvachiligining alohida o‘rni borligi belgilab o‘tilgan.

Hozirgi kunda qorako‘lchilik Respublika xalq xo‘jaligida muhim o‘rin egallaydigan sohalardan hisoblanib, 17,5 mln. ga cho‘l yaylovlaridagi barcha kategoriyadagi xo‘jaliklarda (shirkat, dehqon, fermer) 4,5 mln. bosh shu jumladan “O‘zbek qorako‘l” kompaniyasi tizimidagi xo‘jaliklarda 2,5 mln. bosh qorako‘l qo‘ylari urchitiladi. Qorako‘l zotining nasl zahirasi juda boi. Uning tarkibida 10 ga yaqin rang 30 dan ziyod rang-barangliklar, 4 gul, 4 konstitutsiya tiplariga mansub qo‘ylar mavjud. Ushbu zot bilan uzoq yillar davomida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish tizimi, turli rang, rang-



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

baranglik va gul tipidagi qorako‘l qo‘ylarining 31 yangi zavod tiplari yaratilib, patentlar bilan himoyalangan, yaylovlarni yaxshilash texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Soha respublika miqyosida yiliga 17000,0-18000,0 tonna go‘sht, 250-300 ming dona qorako‘l terilari va 3000,0 tonna atrofida jun ishlab chiqarishni ta’minlamoqda.

Qorako‘lchilikning nasl bazasi kuchli xozirda respublikada 29 naslchilik zavodlari va xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatmoqda va zot miqyosida 31 yuqori irsiyatli zavod tiplari  mavjud. Barcha zavod tiplari qorako‘lchilik institutining ilmiy xodimlari va amaliyotchilar ijobiy hamkorligining mahsuli hisoblanib, ularning irsiyati qora, ko‘k, Buxoro, Qoraqalpoq, Surxondaryo surlari oq, guligaz ranglaridagi, turli gul tipli (qalamgul, yassi, qovurg‘asimon) yuqori sifatli qorako‘l terilari ishlab chiqarish bo‘yicha seleksiyalanib, mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining Mustaqqillik yillari davomida xalq xo‘jaligi barcha tarmoqlari bo‘yicha ulkan yutuqlarga erishib, dunyo hamjamiyatini  hayratda qoldirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilning asosiy yakunlari mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2014 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” mavzusidagi** ma’ruzasi e’lon qilindi.

O‘tgan 2013 yil ham mamlakatimiz ijtimoiy hayotining turli jabhalarida yangi yutuq va natijalarga juda boy bo‘ldi. Prezidentimiz I.A.Karimov 2014 yilning 19 yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yilning asosiy va 2014 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisida o‘tgan yil natijalariga atroflicha to‘xtalib, joriy yil vazifalarini aniq-ravshan belgilab berdi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Davlatimiz rahbarining ma’ruzasida jahonda e’tirof etilgan taraqqiyotning o‘zbek modeli hamda Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yo‘nalishlarini izchil amalga oshirish natijasida, dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan inqiroz holatlariga qaramasdan, 2013 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o‘sish sur’atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi taminlangani qayd etildi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish dasturini amalga oshirish, fermer va dehqon xo‘jaliklarini rivojlantirish 120,8 mingta ish o‘rni, shu jumladan, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarda 35,4 mingta, bog‘dorchilikda va issiqxona xo‘jaliklarida 37,8 mingta ish o‘rni tashkil etilishini ta’minladi.

Fermer xo‘jaliklarida meva-sabzavot hamda go‘sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash va saqlashni tashkil etish, 56,4 ming tonna sig‘imga ega bo‘lgan 55 ta sovutish kamerasini qurish va rekonstruksiya qilish 19,7 ming kishini mehnat faoliyatiga jalb etish imkonini berdi.

Prezidentimiz ma’ruzasida 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning quyidagi eng muhim ustuvor vazifa va yo‘nalishlari belgilab berildi:

birinchidan, yuqori va izchil o‘sish sur’atlarini saqlash, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash;

ikkinchidan, iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish bo‘yicha dastur tayyorlash va uni amalga oshirish;

uchinchidan, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish;

to‘rtinchidan, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish;

beshinchidan, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida xususiy uy-joylarni qurish bo‘yicha dasturni amalga oshirish;



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

oltinchidan, aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil qilish muammosini hal etish;

Respublikamiz Prezidentining qator farmonlarida chorvachilikni jadal rivojlantirish, xalqimizning tobora o'sib borayotgan chorva mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga alohida e'tibor qaratilgan. CHorvachilik qishloq xo'jaligining etakchi sohalaridan biri bo'lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu talabni qondirishda chorva mahsulotlari etishtirishni ko'paytirish katta axamiyatga ega. CHorva mollari va parrandalardan olinadigan go'ng o'simliklar uchun qimmatli organik o'g'it sifatida foydalaniladi. Hayvonlar arzon to'yimliligi kam bo'lgan o'simlik oziqalarini, kishilar iste'moli uchun zarur bo'lgan qimmatli mahsulot va sanoat uchun kerakli bo'lgan xom ashyoga aylantirib beradi.

Axolini sifatli va arzon chorva oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash dunyo mamalakatlaridagi kabi bizning xam mamlakatimizda xam eng dolzarb masalalari xam biri bo'lib turibdi. Mustaqillikga erishganimizdan keyin mamlakatimizda boshqa soxa va tarmoqlar kabi chorvachilikning rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda.

Iqtisodiy isloxotlarni tobora chuqurlashtirish asosida chorvachilikni yanada rivojlantirish uchun qator imkoniyatlar yaratilmoqda. Istiqlolga erishgan kunlardanoq agrar sektorning muhim tarmog'i hisoblangan chorvachilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Eng asosiysi sohada bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan iqtisodiy isloxatlar izchillik bilan amalga oshirilib, chorvachilikni barqaror rivojlantirishni xuquqiy asoslari barpo etildi. Bunga misol qilib, Davlat qonunlarini, Prezident farmon va qarorlarini va hukumat Dasturlarini, Vazirlar maxkamasining qator qarorlarini keltirish mumkin. Ayniqsa, bu borada Prezident I.A.Karimov tomonidan "SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlar to'g'risida" gi 2006 yil 23 martda qabul qilingan 308–sonli hamda "SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik maxsulotlari ishlab chiqarishni



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi 2008 yil 21 aprelda qabul qilingan 842 - sonli qarorlari muhim axamiyat kasb etmoqda. Ushbu qarorlarni joylarda ijrosini ta’minlash maqsadida, Respublika Vazirlar mahkamasining 2009–2011 yillar davomida chorvachilikni rivojlantirish, qoramollar bosh sonini va sut hamda qoramol go‘shti ishlab chiqarishni ko‘paytirish borasida Respublika Dasturi ishlab chiqildi. Mamlakatda chorvachilik, qoramolchilik, asalarichilik va baliqchilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator qarorlar va me’yoriy xujjatlar qabul qilindi.

SHu sababli qishloq xo‘jaligi doimiy ravishda amalga oshiriladigan iqtisodiy isloxatlarni markazida turadi. Barcha iqtisodiy o‘zgarishlarni jarayoni dexqonchilik va chorvachilik sektoriga qancha chuqur ta’sir etishiga qishloq xo‘;aligi jumladan chorvachilik yuzdan o‘zgaruvchan iqtisodiy isloxatlarga muxtoj. Ko‘p bosqichli xo‘jaliklarni tashkil etish xozirgi kunning talabi. Xozirgi davrda fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va uni ommaviy tarzda rivojlantirishni mamlakatimizda jadal suratlar bilan olib borilmoqda. Fermer xo‘jaliklari maxsulotini ishlab chiqarish qayta ishlash, saqlash va sotish kabi jarayonlarni o‘z qo‘llariga olishlari xamda xaqiqiy mulk egalari bo‘lishi kerak. Respublikamizda chorva mollarini bosh sonini ko‘paytirish ularning maxsuldorligini oshirish, jaxon andozalaridagi yangi texnolgiyalarni joriy etish, chorva maxsulotlarini ishlab chiqarishda dexqon, fermer, ijara kabi ishlab chiqarish usullarini qo‘llab chorvadorlarni mulk egalari deb xis etgan xolda mexnat qilish bilangina chorvachilikni rivojlantirish mumkin.

## MAVZUNING DOLZARBLIGI

Qo‘ychilik qadimdan rivojlanib kelayotgan chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lmb IX-X- asirlardan boshlab qo‘ychilikning insonlar o‘z manfaatlari yo‘lida teri, qorako‘l teri, dag‘al, yarim dag‘al, mayin va yarim mayin jun kabi mahsulotlar etishtirish uchun ularni turli xildagi mahsulot yo‘nalishiga mansub zotlarni yaratib, sanoat xom ashyolari va sut kabi oziq ovqat mahsulotlari etishtirishda foydalanib kelmoqda.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Hozirgi kunda respublikamizda qo‘ychilik ayniqsa qorako‘lchilik oqsoq sohalardan biriga aylanib qolgan. SHuning uchun mamlakatimiz Prezedenti tomonidan chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan 308- 342- qarorlarida qo‘ychilikni rivojlantirishga ham alohida e’tibor berilgan. Qo‘ychilikni ayniqsa qorako‘lchilikni rivojlantirish hozirgi davirdagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Qoraqo‘l qo‘ylarining bosh sonini ko‘paytirish va ularning mahsuldorligini oshirishda qo‘zilarni o‘sish rivojlanish darajasini yuqori bo‘lishini taminlash muhim ahamiyatga ega. Qo‘zilarni sog‘lom bo‘lishi va o‘sish rivojlanishining yuqori bo‘lishiga ona qo‘ylarni bo‘g‘ozlik davrida to‘la qiymatli oziqlantirish ularning o‘sish – rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Qo‘zilarning o‘sish va rivojlanishigaona qo‘ylarni bo‘g‘ozlik davrida to‘liq qiymatli oziqlantirishni tashkil etish tug‘ilgan qo‘zilarni kasalliklarga chidamli,kunlik o‘sishining yuqori bo‘lishida va iqtisodiy samaradorlikni yuqori bo‘lishida katta ahamiyatga ega. Qo‘ylarning bo‘g‘ozlik davri asosan qish oylariga to‘g‘ri keladi shuning uchunxo‘jalikda mustahkam ozuqa bazasini yaratish lozimayniqsa qo‘ylarning bo‘g‘ozligini ikkinchi davrida oziqlantirishga alohida e’tibor berish kerak. Ozuqa zahirasini yaratishda sifatli ozuqa tayyorlash bo‘g‘oz qo‘ylarni to‘liq qiymatli oziqlantirishni ta’minlaydi.

Ozuqa bazasini yaratish ham asosiy muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. hozirgi davirda qo‘ylarni bosh sonini ko‘paytirish va mahsuldorligi yuqori bo‘lgan guruhlarni tashkil etish dolzarb masalalar bo‘lib hisoblanadi. Mahsuldorligi yuqori bo‘lgan qo‘ylarni ko‘paytirish uchun ona qo‘ylarning bo‘g‘ozlik davrida to‘la qiymatli oziqlantirishni tashkil etishning ahamiyati katta.

## MAVZUNING ILMIY AMALIY AHAMIYATI

CHorvachilikni rivojlantirish mamlakatimiz aholisini go‘sht, sut va go‘sht – sut mahsulotlari bilan, sanoatni teri, qorako‘l teri va jun mahsulotlari bilan ta’minlashda amaliy ahamiyatga ega. Qo‘ychilik chorvachilikning asosiy



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

tarmoqlaridan biri bo‘lib, ilmiy asoslangan holda o‘tkazilgan tajribalar natijasida rivojlantirib kelinmoqda qo‘zilarni o‘sish va rivojlanishiga ona qo‘ylarni bo‘g‘ozlik davrida to‘liq qiymatli oziqlantirishning iqtisodiy samaradorligi mavzusida bajaradigan ish qorako‘lchilikni rivojlantirishda ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Qorako‘l qo‘ylaridan olinadigan qorako‘l teri mahsulotiga bo‘lgan talab butun jahonda barcha mamlakat xalqlarining etiborini tortadigan antiqa mahsulot bo‘lib jahon bozorida o‘z o‘rnini topgan. Sifatli tabbiy mahsulot bo‘lib o‘zining rangbarangligi turli xildagi tovlanadigan rangi bilan xammaning e’tiborini tortadi.

Qorako‘lchilik nafaqat qorako‘l teri etishtirishda bundan tashqari charimbob teri, jun mahsuldorligi bilan ham iqtisodiy samaradorlikga ega bo‘lib hisoblanadi. Aholini sut go‘sht mahsulotlari bilan ta’minlashda ham eng muhim ahamiyatga molik bo‘lgan sohalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Qorako‘lchilikni rivojlantirishda ona qo‘ylarning bo‘g‘ozlik davrida ayniqsa bo‘g‘ozligining ikkinchi davrida tsho‘la qiymatli ratsion bilan oziqlantirish homilaning o‘sish va rivojlanishini yaxshilash bilan bir qatorda sovliqlarni to‘o‘andan so‘ng sut mahsuldorligini yuqori bo‘lishini ta’minldaydi. Bu esa tug‘ilgan qo‘zilarning kasalliklarga chidamliligi va kunlik o‘sishini yuqori bo‘lishida katta ahamiyatga ega. SHuning uchun bitiruv malakaviy ishida bajariladigan mavzu hozirgi davirda ilmiy, amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# I. ADABIYOTLAR TAHLILI

Qorako‘lchilik chorvachilikning muhim va o‘ziga xos, Respublikamizning og‘ir ekstremal sharoiti bilan xarakterlanadigan cho‘l xududlarida rivojlanib, shu xudularda samarali foydalanuvchi va ushbu region aholisining sotsial turmush darajasini taminlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, uning asosiy mahsuloti – qorako‘l terilari valyuta manbai hisoblanadi. Bu borada ta’kidlash lozimki, ushbu mahsulot o‘zining rangbarangliklari, gullarning naqshlari, jun tola qoplamining yuqori sifati jihatidan tangsiz hisoblanadi.

Hayvonlarning alohida- alohida sifatlarining xususiyatlarini yaxshilashi naslchilik ishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liqdir. CHorvachilikda asosiy urchitish metodlari – toza holda urchitish va chatishtirish.

CHorvachilikning tajribasida hayvonlarni uzoq muddatda bir xil sharoitda saqlash bilan yopiq urchitish yomon natijalarga olib kelgani ma’lum.

B.A. Kuznitsov (1955) o‘qtirdiki, “Ulus” sovxozining sovliqlarini “Qorako‘l” naslchilik xo‘jaliklarning qo‘chqorlaridan olingan urug‘ bilan urug‘lantirilganda,



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

ulardan olingan qo‘zilarning hayotchanligi oshib, tirik vazni ko‘paygan, teri sathi kengaygan va elita hamda o‘rta gulli qo‘zilar ko‘proq tug‘ildi. Agar naslchilik ishi to‘g‘ri yo‘lga qshyilgan bo‘lsa, deydi M.A. Koshevoy (1975) yangi raionlarga urchitish uchun keltirilgan qo‘ylarni chatishtirishni yaxshilash va mahsuldorligini ba’zi bir tomonlarini oshirish uchun qon quyish yo‘li juda yaxshi natijalarni beradi.

P.V. Aralov va V.A. Petrov (1935) ko‘rsatadi, eski vaqtda dehqonlar vaqti-vaqti bilan o‘z podalariga boshqa joydan keltirilgan qo‘chqorlarni qo‘shganlar.

Akademik V.M.YUdin va M.I. Kotov (1949) naslli qo‘chqorlarni vaqti – vaqti bilan almashtirishga katta ahamiyat berib, shunday usul bilan qorako‘l qo‘ylarning teri sifatini yaxshilash mumkin deb hisoblaganlar. I.N. Dyachkov (1980) fikricha, keltirilgan qo‘chqorlardan shu vaqtda yaxshi olish mumkinki, qochonki ularning o‘sgan sharoiti bilan yangi sharoti o‘xshash bo‘lsa.

N.S. Gigineyshvili (1974) ko‘k qorako‘l qo‘ylarni urchitishda boshqa sharoitda o‘stirilgan ko‘k qorako‘l qo‘chqorlardan foydalanish, olingan ko‘k qo‘zilarni hayotchanligini oshiradi, albiniot (oq tanglay) qo‘zilarning tug‘ilishini kamaytiradi, degan fikrga kelgan.

R.G.Valiev (1964) fikricha, boshqa xo‘jaliklardan keltirilgan naslli qo‘chqorlar qorako‘l terisini sifatini yaxshilashga ijobiy natija berganligini ma’lum qilganlar. Tadqiqotchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga qarab qorako‘l terilar yuzasini o‘lchashning u yoki bu metodini qo‘llanishi mumkin. Qorako‘l terilar yuzasining kattaligi xom ashyoning turi va rangiga bog‘liq bo‘ladi. M.D.Zokirov ( 1976) agar qora qorako‘l terilar yuzasi 100% deb qobul qilinsa, qorako‘l – qorako‘lcha terilar 87,3% ni, qorako‘lcha- 75,6%ni, golyak-60,9% ni va yaxbop terilar 15,2% tashkil qiladi. Ko‘k va sur terilar orasida ham xuddi shunday tafovut qayd qilingan. Har xil turdagi terilar yuzasining bunday farqli bo‘lishiga sabab ular xomiladan embrional rivojlanishining turli davrlarda va yangi tug‘ilgan qo‘zilar hayotining dastlabki kunlarida shilib olinishidadir. I.YA.Averyanov va I.M.Ibragimov (1950) yaylov – ozuqa sharoiti va qo‘ylarning boqish darajasi ham ayniqsa bug‘ozliqning so‘nggi davrida terilar kattaligiga va qorako‘l mahsulotiga ta’sir ko‘rsatadi. YAxshi yaylovli oziqa sharoitida joylashgan xo‘jaliklarda (



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Konemex, Nishon, davlat naslchilik zavodi, “CHimqo‘rg‘on” sovxozi) olinayotgan qorako‘l terilar yuzasining kattaligi jihatidan, nisbatan og‘irroq sharoitda joylashgan xo‘jaliklarda (“Jongeldi” naslchilik xo‘jaligi va Karakata savxozi) olinayotgan terilardan 9,2 – 10,3 % afzal ekanligi aniqlandi. SHu bilan birga yaxshi semirgan sovliqlardan semizligi past bo‘lgan sovliqlarning qo‘zilarga nisbatan ancha katta ( 10 – 12% ) teri beradigan yirik qo‘zilar olindi. Teri og‘irligi uning muhim tovar xususiyatlaridan biridir. CHunki ulardan tayyorlanadigan kiyimlar qanchalik engil bo‘lsa, shuncha narxi yuqoridir.

M.I.Kotov (1950) aytishicha, qo‘zilarning tirik vazni ortishi bilan terilarni og‘irligi ham oshib boradi. YAngi shilib olingan terilar og‘irligi yirik vazni katta bo‘lgan qo‘zilarda 18% va maydalarida esa 22% tashkil etadi. Qo‘zilar kattalashgan sari bu nisbat o‘zgardi va bu ko‘rsatgich 6 – 9 % tushub qoladi. YAngi shilib olingan qorako‘l teri og‘irligi uning kengligiga bog‘liq ekanligini I.N.Dyachkov (1966) aniqlagan terisining og‘irligi uning qalinligiga ham bog‘liqdir. Teri qalinligi qancha ortiq bo‘lsa, uning og‘irligi ham shuncha og‘ir bo‘ladi. A.A.Rahimov (1967) ma’lumotiga ko‘ra teri og‘irligi qo‘zilarning katta – kichikligiga bog‘liqdir. Teri oshlanganda tuz hisobiga uning og‘irligi ortadi, ikki tomondan, teri tuzlangandan so‘ng o‘zidagi og‘irligi ortadi, ikkinchi tomondan, teri tuzlagandan so‘ng o‘zidagi ortiqcha suvni yo‘qotadi va shu hisobdan uning og‘irligi ham kamayadi. Agar yangi shilib olingan teri namligi o‘rtacha 70% ga yaqin bo‘lsa, tuzlangan teri namligi 40 – 50% da quritilib silkitilgandan so‘ng uning namligi 15-18 % dan oshmaydi. I.YA.Averyanov (1941) ma’lumotiga ko‘ra, terining og‘irligi uning barra tipiga bog‘liqdir. Eng og‘ir terilar, o‘sinqiragan tiplarga xosdir va eng engil terilar qovurg‘asimon – yassi terilardir. Hozirgi vaqtda jahon bozorida yupqa va engil terilarga talab katta. Qorako‘lchilik XX asrning 2 yarmidan keyingi ilmiy izlanishlar juda serqirra, ya’ni har tomonlama olib borildi. Bulardan eng katta ahamiyatga ega bo‘lganlari rang, rang-tuslari, rangbarangliklarning qanday qilib qancha miqdorda nasldan-naslga o‘tishi, gul turi va shaklining irsiyati va barra tiplarining ro‘yobga chiqishidir.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Gullarning har xilligini 1900 yilda I.V. Sinitsin yozgan bo‘lsa, u ham besh turga bo‘lib, yassi – halqasimon gulini ham qayd qilgan edi. (I.N.Dyachkov 1980 y). 1905 yilda I.Ivanov yassi to‘lqinli gulni va yaloq gulni ham yozadi. V.YA.Demyanenko esa 1912 yili yassi gul deb qo‘shdi. 1914 yilda esa akademik M.F. Ivanov bu klassifikatsiyasini ancha kengaytirdi va 1914 yili katta yol gulni ham qo‘shdi. Professor I.N.Dyachkov (1980) to 1981 yilgacha yuqorida yozilgan klassifikatsiya qo‘llanilgan emas, deb yozgan va 1926 yilda davlat standartida ham gullar to‘g‘risida noaniqliq bor edi, ya’ni yaltiroq gul mayda gul, xira gul deb qayd etilgan.

Gullarning nomlari aytilishi, qrim terisi merlushka va boshqa terilarda (klam, lyamki) ham bir xil edi.

1933 yili B.N.Vasin qovurg‘asimon qalam gulni qo‘shdi, keyin esa tor qirrali yolsimon qalami gul, xalqasimon qalami gul deb bo‘ldi. (I.N. Dyachkov, R.T. Pismennaya 1951 – 1952 yil, B.A. Kuznitsov 1955 yil, M.D.Zokirov va boshqalar (1983yil) so‘ngra esa buralma (ilon izi) taroqsimon qalami gul deb ham qo‘shildi. Lekin 1961 yilda barra tiplari deb tasdiqlangan edi.( A.Gaziev va boshqalar 2002 y ) ma’lumotiga ko‘ra, qorako‘l qo‘zilarining tug‘ilganlaridan keyingi davrida gul ko‘rsatgichlari va jun tola qatlami sifati ma’lum o‘zgarishlarga uchraydi. Ushbu o‘zgarishlar jarayonida ma’lum yosh davrlari oralig‘ida gullarning bosqichma – bosqich buzilishi, jun tola qoplami yaltiroq va ipaksimonligining susayish jarayonlari yuz beradi. Korrelyasiya qonunlariga asoslanib T.U. Umrzoqov (1989) yozishicha, har bir organizm bir butun va cheklangan tuzimni tashkil qilib, uning ayrim qismlar orasida yuz beradigan foydali va salbiy o‘zgarishlar orasida o‘zoro bog‘liklik kuzatiladi. P.Fidereen (1975) su’niy va tabiy tanlov jarayonida organzmning bir qismida bo‘ladigan o‘zgarishlar, tanlov olib borilayotgan boshqa belgilarda ham ma’lum o‘zgarishlarga olib keladi.

R.G.Valiev va F.SH.SHarofidinov (1972) xatti – xarakati, xulki turlicha bo‘lgan qo‘ylarning mahsuldorlik belgilarida ham o‘zgarish tofovutlar borligini yozganlar. Qorako‘lchilik muhim seleksion belgilaridan biri, bu yirik qo‘zilar olish ayniqsa qanday naslchilik qo‘chqorlardan foydalanishdan, chunki qorako‘l



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

terisining sohasi 1- 3 kunlik qo‘zining tirik vazniga bog‘liq ( I.YA.Averyakov 1966).

Professor I.N.Dyachkov (1960) boshchiligida bir guruh olimlar qorako‘l qo‘yning gul shakllariga asoslanib seleksiya – naslchilik nazariyasini ilgari surib 1961 yil qorako‘lchilik amaliyotiga keng qo‘llash uchun tavsiya bergan edi. Akademik V.M.YUdin (1950) gullarning 15-20 kun davomida saqlanishiga e’tibor berib naslli qo‘chqorlarni takroriy 15-20 kunligida baholoshni tavsiya etgan edi. I.N. Dyachkov (1966) qora rangli urg‘ochi qorako‘l qo‘zilarni 12-15 kunligida takroriy ko‘rib chiqib gullar yaxshi saqlanganlarini alohida guruhlarga ajratib super elita suruvi deb nomlashni tavsiya qilgan edi. Qo‘zilarda jun – tola uzunligi qumli cho‘l va tog‘ oldi mintaqalarida har – xilligi aniqlangan va belgining yuqori darajada o‘zgaruvchanligini tog‘ oldi va yarim cho‘l xududlarida qayd qilingan. Gullarning saqlanishi va u bilan bog‘liq bo‘lgan seleksion belgilarning o‘zgaruvchanlik darajasi o‘rganilib, gullarning keskin buzilish davri 23-30 kunligida ro‘y berishi aniqlandi. Bu esa gullari yaxshi saqlanadigan guruhlar yaratilish imkoniyatlari borligidan dalolat beradi. (K.E.Elemesov 1975)

Gullarning buzilish jarayoni ularning jun tolalarning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, gullarning qimmatli, mustahkam, uzun gullar solmog‘ini kamaytirish va pasaytirish kuzatilgan. ( T.U.Umrzoqov 1989). A.Gaziev (2002) qo‘zilarda gul ko‘rsatgichlarining saqlashnish darajasi qovurg‘asimon va yassi tipli qo‘ylarni bir xil juftlash sharoitida yuqori ko‘rsatgichlarga ega bo‘ldi. Gul qoplamining saqlanish darajasi “jaket x jaket” juftlash variantida 10-15 kunlikdan 20-30 kunlikgacha 76,1% dan 44,3% gacha pasaysa, bu ko‘rsatgichlar “qovurg‘asimon x qovurg‘asimon” variantida 89,2% va 64,4% ni “yassi x yassi” variantida 84,4 va 58,3% ni tashkil etishi kuzatildi. Oxirgi ikki juftlash variantida gullar uzunligi va mustahkamligi kam o‘zgaradi. Ushbu yondoshishda jun tola qoplami sifat ko‘rsatgichlarida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi. Olingan natijalar bozor talabidagi ( jaket qalin, qovurg‘asimon va yassi qalin ) keng sathli qorako‘l terilar etishtirishni davrlarga qarab 25-30% ko‘paytirish imkonini beradi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Barcha belgilar bo‘yicha qo‘zilarni tanlashda qumli va shuvoqli – efemerli cho‘l sharoitlari uchun optimal muddat 16-22 kunlik, tog‘ oldi yarim cho‘l sharoiti uchun 10-15 kunlik yosh davrlari hisoblanadi. Qimmatli gullar va jun tolasi pigmentatsiyasi bo‘yicha qumli va shuvoqli- efemerli cho‘l sharoitida qo‘zilarni 23-30 kunlik yosh davrida ham samarali tanlash mumkin (A.Gaziev 2002y)

Qorako‘l qo‘ylar genetikasi o‘rganish 20-30 yillarda boshlandi. ( B.N.Vasin 1971, A.Arapov, V.Petrov, I.Semenov 1935, B.N. Vasin 1929) qorako‘l teri ranglarining klassifikatsiyasini ishlab chiqdi. Keyingi yillarda qorako‘l gajaklarining turi va jun qoplamining xususiyatlarining nasldan – naslga berilishi I.N.Dyachkov (1980), M.A.Koshevoy (1977), R.Valiev (1976) va qator boshqa mualliflar maqollarida o‘rgatilgan. Qorako‘l qo‘ylarni seleksion patensialidan to‘loroq foydalanish rezervlar mavjud. Ulardan seleksiya jarayoniga ijodiy yondoshish yo‘li bilan qo‘ylar mahsuldorligini ancha oshirish mumkin. SHunday yo‘llardan biri qorako‘l qo‘zilarni gullar ko‘rsatgichlarini saqlash va o‘zgarish darajalarini o‘rganish, ularni nasliy xususiyatlarini aniqlashdir. Zotning salohiyatidan to‘laroq foydalanib, gul qoplami xususiyatlarini keyingi o‘sish jarayonida yaxshi saqlanganlarini tanlash ijobiy natija berishi mumkin. Asl zotli qora qorako‘l terisining davlat standarti (O‘zRST – 641-95) va qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yurgazish qo‘llanmasida (2000) qora rangli qorako‘l qo‘zilarining qalam gullar eniga qarab mayda (tor), o‘rta va katta (enli) qalam gullarga bo‘linadi. Bunda eni 4mm gacha mayda, 4mm dan ortiq 8mm gacha o‘rta va 8mm dan ortiq bo‘lganlari katta (keng) qalam gullar guruhiga kiritiladi. K.B. Muxtorov (1971) tomonidan tavsiya qilingan oshlangan qora qorako‘l terilarni eksportga jo‘natish oldidan navlarga ajratish qo‘llanmasida qalam gullar eniga qarab yanada bir necha kichikroq guruhlarga bo‘linadi, ularning har bir guruhga tabaqalashtirilgan baho berilgan.

I.N.Dyachkov, R.T.Pismennayalar (1951) har xil turdagi qalam gullarning, eni turliqa bo‘lishini qayd qilib o‘tganlar. Haddan tashqari keng qalamgullar yassi (14mm gacha) va qovurg‘asimon (12 mm gacha) qalamgullarga xos ekanligi ko‘rsatilgan. Qo‘zilarning va qorako‘l terilarning gul o‘lchami, shuningdek



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

qalam gullarning kengligi, avvalo, bo‘g‘oz sovliqlarning bo‘g‘ozlik davrida oziqlantirish darajasiga qarab turlicha bo‘ladi. I.N.Dyachkovning (1940) yozishicha, qo‘zilatish kompaniyasining boshidan oxiriga qarab katta gulli qo‘zilarning soni ko‘payib, mayda va o‘rta gulli qo‘zilarning salmog‘i kamayib boradi.

M.A.Koshevoy va boshqalarning (1973) ma’lumotiga ko‘ra, oziqa – yaylov sharoiti yaxshi kelgan yillarda, oziqa – yaylov sharoiti noqulay kelgan yillarga nisbatan mayda va o‘rta gulli qo‘zilar kamayib katta gulli qo‘zilarning soni ko‘payadi. Bunday ma’lumot V.I. YUdin, M.I. Kotov, (1951) tadqiqotlarida ham qayd etilgan. P.Aralov, V.Petrovlar (1935) qo‘zilarning gul o‘lchami, ular ona qornida davrining uzoqligi bilan ham aloqadorligini uqtiradilar. Bu davrning uzayishi katta gulli qo‘zilar sonining ko‘payishiga olib keladi. V.I.YUdin, M.I.Kotovlarning (1951) ma’lumotiga ko‘ra, sovliqlarni beshinchi tug‘ishiga qadar katta gullilar soni, har tug‘ishi ko‘payib boradi. Oltinchi tug‘imda qaytadan katta gullilar kamayib, mayda gullilar ko‘payadi. I.YA.Averyanov (1951) ning yozishicha, qo‘zilarning gul ulchami ota – onasining konstitutsiya tiplari bilan aloqadordir. Ko‘pol konstitutsiyali qo‘ylardan oligan qo‘zilar orasida katta gullilar, nozik konstitutsiyali qo‘ylarning avlodlari orasida mayda gullilar ko‘p uchraydi. Avtorning qayd qilishicha nozik konstitutsiyali qo‘ylarning ko‘pchiligi (77,7% gacha) mayda gulli, ko‘pol konstitutsiyali qo‘zilar katta gulli (66,3 % gacha) va mustahkam konstitutsiyalilar o‘rta gulli (80,7% gacha) bo‘ladi. Bunday ma’lumotlar B.A. Kuznotsov (1955) tadqiqotlarida ham ko‘rsatib o‘tilgan. M.A.SHirinskiy (1962) ning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, qo‘zilarning gul o‘lchamlari ota – onasining gul o‘lchami bilan bog‘langandir. Mayda gulli sovliqlarni mayda gulli qo‘chqorlar bilan juftlantirilganda, eng ko‘p mayda gulli katta gulli qo‘chqorlarda esa eng ko‘p katta gul qo‘zilar olinadi. S.Mamajonovning (1963 – 1964 ) ta’kidlashicha, qo‘ylarning gul o‘lchami bilan ularning tirik vazni o‘rtasida ijobiy bog‘lanish mavjud bo‘lib qo‘zilarning gullari qancha yirik bo‘lsa, ularning tirik vazni shuncha yuqori bo‘ladi. Turlicha gul o‘lchamiga ega bo‘lgan



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

sovliqlardan olingan qo'zilar tirik vazni, qalamgullarning eni va uzunligi, tolalar uzunligi bir – biridan keskin farq qiladi.

B.N.Vasin va boshqalarning (1971) ma'lumoti bo'yicha qo'zilarning gullari yiriklashgan sari ularning tirk vazni va tana o'lchovlarining xajmi ham ortib boradi. M.A.SHirinskiyning (1970) xulosasi bo'yicha gul o'lchami, gul turlari bilan bir qatorda qo'zilarning muhim seleksion belgilaridan hisoblanadi va undan oqilona foydalanish qorako'l zotini yanada takomillashtirish va uning mahsulot sifatini oshirish imkonini beradi. Biologik fanning rivojlanishi va undagi qonunyatlarning ochilishi hayvonlarni ilmiy asosda yo'lga qo'yilganligi mahsuldorligini yaxshilashgaimkon yaratib beradi. Bu esa o'z navbatida har xil hayvonlar guruhini, tipini, va hayvon zotlarini yaratishga imkon yaratib beradi. CH.Darvin o'zining geneal asarida tashki muhit faktorlari ta'siriga katta ahamiyat berib, shunday deb yozgan edi: "YAshash sharoitida yuz beradigan har qanday, hatto haddan tashkari engil o'zgarishlar ham ko'pincha o'zgaruvchanlikni keltirib chiqarish uchun etarli bo'ladi". M.F.Ivanov (1949) ko'rsatishicha oziqlantirish hayvonlarning tana tuzilishi va mahsuldorligiga katta ta'siri borligini, uning kuzatishicha, yaxshi oziqa bilan oziqlantirilgan qo'ylardan yomon oziqlantirilgan qo'ylari nisbatan tug'ilgan qo'zilarning tirik vazni 1,2 – 1,6kg ko'p bo'lganlar. Professor E.YA.Bagdanov (1951) o'zining ilmiy ishlari xulosasida shuni ma'lum qiladilarkim, yosh hayvonlarini to'yimli oziqalar bilan boqqanda ularni o'sishi va rivojlanishi jaddalashadi, tirik og'irligi oshadi, tana tuzilishi yaxshilanadi. Aksincha kam oziqalar bilan yosh hayvonlarni oziqlantirilsa ularning o'sishi to'xtaydi, qo'shimcha o'sish og'irligi pasayadi. V.M.YUdin (1950), I.N.Dyachkov (1972) va boshqa olimlarning keyingi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, hayvonlarni boqib va asrash sharoitlari, ayniqsa bug'ozlik davrining ikkinchi yarimidagi sharoitlar haqiqatda ham qorako'l terilarning xossalarga muayan darajada ta'sir ko'rsatar edi.

I.N.Dyachkov (1980), B.A.Ko'ziev (1955) va boshqalarning ma'lumotiga ko'ra, rivojlanishning dastlabki oylarida embirionning tashqi dermalari o'zgaradi va ichki organlari shakllanadi. Xomilaning boshi paydo bshladi, gavdasi va dumi



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

ajratiladi, oldingi orqa oyoqlari vujudga keladi. I.YA.Averyanov (1961) qo‘ylarni boqish va asrash sharoiti ta’sirida qorako‘l terining sifati o‘zgarishi to‘g‘risidagi materiallarga asoslanib, qorako‘l jingalakligining bosqichma – bosqich rivojlanish to‘g‘risida gipotezani oldinga so‘radi. I.N.Dyachkov (1961) takidlashicha, barra teri beradigan qo‘ylarning junlarini jinglakligi mutatsiya natijasidir, qaysikim yo‘naltirib tanlash natijasida bu belgi mustahkamlangan va xozirgacha nasldan – naslga berib kelmoqda.

A.A.Rahimov (1967) qorako‘l qo‘yi eng qadimiy hisoblanib, buning paydo bo‘lishiga ming yillar mobaynida, mehnat sarfi natijasida kelib chiqqan qo‘zilik vaqtida, chiroyli qingalakka ega bo‘lgan qo‘ylar kerak bo‘lgan buning uchun ko‘p asrlar va ming yillar o‘tib ketib, shunday qorako‘l qo‘yi paydo bo‘lgan deb tushuntirilgan. Ikki xil jun qoplamiga ega bo‘lgan qo‘ylarning chatishtirish natijasida yangi jingalakka ega bo‘lgan qo‘zilar tug‘ilib ular asosida qorako‘l qo‘zilarni paydo bo‘lgan, deb B.N. Vasin va boshqalar (1971) tushuntirgan. I.N.Dyachkov, N.V.Nikolskiy, A.P.Vorobevskiy (1972) va boshqalar qorako‘l terisini tip asosida seleksiyalash mumkin ekanligiga asoslanib, jingalaklarning har xil formasi va tipi hamda umuman qorako‘l teri tiplari genetik tabiatiga ega deb ko‘rsatganlar.

V.I.Stayanovskaya (1974) ona qo‘ylar vaznining 1 kg oshganligi, tug‘ilayotgan qo‘zilarning vazni o‘rtacha 40 gr ga oshganligini aniqlangan. A.A.Rahimov (1972) ma’lumotiga ko‘ra, o‘rta semizlikdagi bir yashar qzilardan o‘rtacha 37,5% ko‘proq oriq qo‘zilarga nisbatan jun qirqib olindi. O‘rtadan yuqori semizlikdagi qo‘zilar esa 70,6% dan ziyodroq jun jun berar ekan.

SH.M.Rizaev (1975) o‘tkazgan tajribalaridan shunday xulosa qilinganki, 4,5-4,8 kg massaga ega bo‘lgan qo‘zilarning terisi yuqori sifatli bo‘ladi. CHunki ularning terisi katta, terisi qalin, navi yuqori hamda og‘ir vaznliekanligi aniqlangan. Markaziy Osiyo viloyatlari qorako‘l qo‘ychiligi halq xo‘jaligi uchun katta ahamiyatga Markaziy Osiyoda juda katta territoriyaga ega bo‘lgan dasht va yaylovlar ko‘p. Ana shu yaylovlarida tashqi va ichki bozor talabini qondiradigan chiroyli teri beradigan qorako‘l qo‘ylari urchitiladi. Qorako‘l qo‘ylari quruq



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

iqlimga ega bo‘lgan dasht va yarim dashtlarda ko‘pgina chorvadorlarning xizmati tufayli kelib chiqqan ana shu tariqa yozning eng issiq kunlariga, dashtning suruvlariga ega dag‘al oziqalarga moslashib ketgan. Qorako‘l qo‘ylari boshqa ko‘pgina dag‘al junli qo‘ylardan o‘zining ba’zi bir xususiyatlari bilan farq qilib turadi. Boshqa zonalarga moslashgan qo‘ylardan qorako‘l qo‘ylarning farqi shuki, bularning qo‘zilardagi jun qoplamining jingalak bo‘lishi va har xil sifatli gullar bilan qoplangan qimmatli terilar berishidir.

A.A.Rahimov (1967) ko‘rsatishicha, mayin junli qo‘ylar terisining har bir $sm^2$ satxida 3000 – 8000 gacha jun tolasi joylashgan bo‘lsa, dag‘al junli qo‘ylarda 300 -1600 tacha jun tolasi bo‘ladi.

SH.M.Rizaev (1976) ma’lumotiga asosan 1 $sm^2$ teri satxida nozik konstitutsiyali qo‘ylarda tola soni 1600 ta bo‘lsa, g‘o‘zamoyda 1460 ta, oq gulda 1270 ta tola tashkil qilar ekan. Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritishga doir qo‘llanmada (2000) qorako‘l qo‘zilar jun tolasining bo‘lgan qo‘zilarni katta junlilar 9-11 mm liklarini, o‘rtacha 12 mm va undan ortiq uzunlikdagi qo‘zilarni uzun junlilar guruhiga kiritish lozimligi belgilagan. B.L.Isoyans (1970)ma’lumotiga ko‘ra, qorako‘l qo‘zilarning jun tolasi ularning turli qismlarida turlicha uzunlikka egadir. Avtorning qayd qilishicha, Qo‘zilarning bo‘yin qismidagi jun tolasi 19,7 mm , elka ustida 15,8 mm bo‘lgan holda sarg‘isidagi junning uzunligi 13,2 mm ga tengdir. I.N.Dyachkov (1963)tadqiqotlariga ko‘ra, qo‘zilarning elka qismidagi jun tolalarning uzunligi ularning sarg‘isidagi jun tolasiga nisbatan jaket barra tipida 29,3% kavkaz barra tipida 33,3%, qovurg‘asimonda 20,9% va yassidagi qo‘zilarda 42,4% ortiqdir. Qorako‘l qo‘zilarning turli qismlarida jun tolasining turlicha uzunliklarda bo‘lishining sababi mazkur qismlardagi tola ko‘rsatgichlarning vujudga kelishi va tolalarning teri yuzasiga o‘sib chiqish muddatlari turlichadir. B.L.Isoyans (1971), R.G.Valiev, F.SH. SHarofidinov (1972), A.P.Vorobevskiy (1970), I.N.Dyachkov va boshqalarning (1950) tadqiqot natijalariga ko‘ra qorako‘l xomilasining oldingi qismlarida jun ko‘rtaklarining paydo bo‘lishi va ulardan jun tolasining o‘sib chiqishi, keyingi qismlardagidan 7 – 10 kun avval sodir bo‘ladi, bu farq yangi



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

tug‘ilgan qo‘zilar jun tolasining uzunligida aks etadi.  Jun tolalarning uzunligi qo‘zilardagi gullarning o‘akli va turi bilan bog‘liqligi  I.YA.Averyanov (1951), I.N.Dyachkov (1963) va  B.L.Isoyans (1970)  tadqiqotlarida qayd etilgan. Avtorlarning ta’kidlashicha , eng qisqa tolalardan yol gullar, eng tolalardan xalqa, parma gullar xosil bo‘ladi. Eng qimmatli qalam va loviyasimon gullar o‘rtacha uzunlikdagi tolalardan xosil bo‘ladi.

Qovurg‘asimon va yass qalami gullar jun tolasining uzunligi yarim doira qalamigullarnikidan kamroq bo‘ladi.

I.N.Dyachkov (1968), S.M. Mamatov (1970),  B.L.Isoyans (1971) ma’lumotigaqaraganda, kavkaz barra tipidagi qo‘zilarning juntolasi eng uzun, qovurg‘asimon va yassi barra tiplarining eng qisqa jaket barra tipidagi qo‘zilarning jun tolasi o‘rtacha uzunlikka egadir.

I.N.Dyachkov (1980) ma’lumotiga ko‘ra, jaket barra tipidagi qo‘zilarning ona qornidagi bir sutkalik o‘sishi  0,22 mm, kavkaz barra tipdagi qo‘zilarniki 0,28mm, qovurg‘asimon barra tipidagi qo‘zilarning 0,18 mm  va  yassi barra tipidagi qo‘zilarniki  0,19 mmga tengdir.  S.M.Mamatovning (1992) kuzatishlariga qaraganda , elita qo‘zilarning juni eng qisqa,  II klassli qo‘zilarning eng uzun va  I klassli qo‘zilarning jun tolasi o‘rtacha uzunlikka  egadir. SHuningdek  tegishli barra tiplari darajasida mayda gulli qo‘zilar eng qisqa katta gulli qo‘zilar eng uzun va o‘rta gulli qo‘zilar o‘rta uzunlikdagi jun tolalariga egadir. Bunday ma’lumotlar YA.N.Nurullaev (1980),  B.L.Isoyans (1971) tadqiqotlarida ham qayd etilgan.

A.N.Vorobevskiyning (1970) tadqiqotlariga qaraganda, turli barra tipdagi qo‘zilarning jun tolasi tug‘ilgandan keyin ham turlicha tezlik bilan o‘sadi. Kavkaz barra tipdagi qo‘zilarning jun tolasi tug‘ilgan vaqtida ham 2,5-4,5 oyliklarida ham uzun, qovurg‘asimon va yassi barra tipdagi qo‘zilarning juni har doim katta bo‘ladi. Bunday ma’lumotni  M.X.Arslonova (1969) tomonidan ham qayd qilingan.

I.N.Dyachkov (1969) ta’kidlashiga qaraganda, qorako‘l qo‘zilaridagi jun tolalarning nasldan – naslga o‘tuvchi belgilaridandir.  YA.Nurallaev, S.Mamatov tomonidan (1977) turli navlarga mansub bo‘lgan, qorakshl terilarida jun tolalari



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

ham turlicha uzunlikda ekanligi qayd qilingan. Qo‘zilarda jun tola uzunligi qumli cho‘l va tog‘ oldi mitaqalarida har xilligi aniqlandi va bu belgining yuqori darajada o‘zgaruvchanligi tog‘ oldi yarim cho‘l xududlarida qayd etildi. (I.N.Dyachkov 1980). Ajab emaski, ming yillar oldin ham bunyodkor ajdodlarimiz bu ztoning yaratishda odamlarni ma’naviy talabini qodirishni o‘ylagan bo‘lsa.

YAngi zavod tiplari va liniyalarni yaratish qo‘chqorlarning nasl sifatini tekshirish, qimmatli genofondlarni asrash, naslli manbalardan unumli foydalanish, urchitish mavsumiga aniqliklar kiritish va o‘zgarish, qochirish muddatlarini qisqartirish va yuqori sifatli qo‘chqorlar urug‘i bilan otalantirish xissalarini oshirish, qo‘zilarni asrash va bepushtlikning oldini olishdek masalalar turibdi. Hozirgi vaqtda ixtisoslashtirishni hisobga olmay, naslchilik ishlari xizmatlarini xabardor qilmay xo‘jaliklaroro naslli qo‘chqorlar almashtirish avj olib ketmoqda, talabdan ortiq qo‘chqorlarni o‘stirishga qoldirish va ularni xo‘jalikda noma’lum muddat saqlanishi, poda sturukturasi buzilishiga va ishlab chiqarish samaradorligini pasayishiga olib kelmoqda. Qorako‘lchilikda erishilgan yutuqlarning hozirgi darajasi umuman olganda mahsulot sifatini yaxshilash, uning assartimentini kengaytirsh, qo‘ylarning nasliy va mahsuldorlik patensiallaridan unumli foydalanish, hamda boshqa muammolar ma’lum darajada echilgan, lekin qorako‘l qo‘ylarni maxsuldorlik imkoniyatlaridan ham oxirigacha foydalanmagan. Bu borada qorako‘l va qo‘y terilarni sathini oshirish imkoniyatlari mavjud. SHu yo‘nalishlar bo‘yicha seleksiya va naslchilik ishlarini ilmiy izlanishlar olib borish qorako‘l qo‘ylaridan to‘laroq foydalanish imkoniyatlarni berishi mumkin.

S.I.Kedrova (1967) yozgan edi. “ Bug‘ozlik davrida barcha xil qorako‘l tipidagi sovliqlarni tirik vazni to yanvar oyigacha sezilarli darajada oshib bordi. Sovuq tushib, yog‘ingarchilik boshlanib, yaylov ozuqasining sifati yomonlashgandan keyin qo‘ylar, ayniqsa yassi va qovurg‘asimon tipidagi sovliqlar ancha oriqlash holida” degan edi. M.D.Zokirov va SH.SH.SHirinbaev (1983) tajriba o‘tkazib quydagi ma’lumotlarni olganlar. Jaket va qovurg‘asimon tipidagi urg‘ochi qo‘zilar yangi tug‘ilganda rivojlanishi va tirik vazni jihatdan



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

o‘rtacha (oraliq) o‘rnini egalladilar ( 3,85+ 0,21 va 3,67+0,14 kg ), kavkaz tipdagi qo‘zilar ularga nisbatan yirikroq ( 4,12+0,19kg), yassi tipidagi qo‘zilar esa ushoq (3,15+0,12 kg) bo‘lib chiqdi. Yirik jingalakli jaket tipdagi urg‘ochi qo‘zilar rivojlanishi va tirik vazni jihatdan nisbatan o‘rtacha (4,21+0,17kg). Kavkaz tipidagi qo‘zilar yirik jingalaklisi (4,51+0,21kg), qovurg‘asimon tipidagi qo‘zilar o‘rtacha (4,08 +0,14kg) va yassi tipdagi ushoq (3,87+0,13 kg) bo‘lib chiqdi, bu ma’lumotlar statistik jihatdan ishonchlidir.

P.N.Kulishov (1951) biror belgi bo‘yicha deb yozgan edi sistemali ravishda bir xil tanlash va saralash turli vaqtlar bilan irga qo‘shilib mazkur hayvonlar naslini, ularning o‘zi bosib o‘tgan yo‘nalishda o‘zgarishga majbur etuvchi asosiy sabablaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. U fenotip bo‘yicha tanlashning samaradorligi fenotipiga ko‘ra yaxshi hisoblangan hayvonlar orasida yaxshi genotiplar ancha ko‘p uchraydi, degan tasavvurga asoslanadi.

M.F.Ivanov (1964) tajribasiga keltiruvchi “eng yaxshi genotiplarini eng yaxshi fenotiplar orasidan izlash kerak” deb tavsiya etgan. Qoniqarsiz boqish va asrash sharoitida o‘stirilgan hayvonlar orasida yaxshi irsiy nishonalarga ega bo‘lganlari kam uchraydi. Fenotip ko‘pincha genotipiga mos kelmasligining sababi hayvonlarning yaxshi boqilmasligidadir. M.F.Ivanov (1949) shunday deb yozgan edi. “ U yoki bu sifatlar bo‘yicha juda yaxshi irsiy sifatlarga ega bo‘lgan hayvonlarni ko‘pincha boqish, asrash, parvarish qilish vaboshqa sharoit yomon bo‘lganligi sababli o‘z sifatlarini yuzaga chiqaraolmaydi va shuning uchun ular yomon irsiy nishonalarga ega bo‘lgan, ammo yaxshi boqilgan va asraladigan hayvonlarga nisbatan zaifroq ko‘rinishga ega bo‘lishi mumin”.

CH. Darvin tabiy sharoitda eng yaxshi individlar yashash uchun kurashadigan yashovchanlik belgisiga qarab tanlanadi,deb ko‘rsatgan edi. Tashqi muhitga eng yaxshi moslashgan hayvonlar yashovchanroq (chidamliroq) bo‘lib chiqadi. Su’niy tanlash esa xo‘jalik uchun foydali belgilariga qarab amalga oshiriladi, ammo bundan xonaki qo‘ylarni urchitishda tabiy tanlanishning xech qanday ahamiyati yo‘q, degan ma’no kelib chiqmaydi. Ma’lumki, tabiy tanlanish natijasida qo‘ylarda turli belgilar o‘rtasida korreletsiya- bog‘lanish (munosabat)



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

rivojlanadi. Ushbu munosabatlar keskin buzilgan taqdirda hayvonning rivojlanishida normadan chetlashish sodir bo‘lishi va yashashga noqobil organzm vujudga kelishi mumkin. Tabiy tanlanish normal rivojlangan, yashashga qobiliyatli mazkur ekologik sharoitga yaxshi moslashgan qo‘zilar vujudga kelishi va yashab ketishiga yordam beradi. Tabiy tanlanish su’niy tanlash bilan birgalikda ekologik konstitutsional va zavod tiplarining vujudga kelishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Su’niy tanlash hayvonga ta’sir ko‘rsatish va yangi formalar yaratishning qudratli vositasidir. Tanlash qaysi yo‘nalishda olib borilsa, xuddi shu yo‘nalishda zarur mahsulotlariga va xo‘jalik bioligik xossalariga ega bo‘lgan hayvonlar vujudga keladi. Tanlash juda katta kuchga ega. Qorako‘lshunosning sa’nati seleksiya qilinayotgan qo‘ylar guruppasidagi hayvonlar organzmida yuzaga kelgan eng kichik o‘zgarishlarni ham payqab olishdan iborat. Bu metodik tanlash jarayonida yangi naslda eng qimmatli xossalar va belgilarini to‘plab, kuchaytirib hamda mustahkamlab borishi, yuqori mahsuldorlik sifatlari bilan ular qilinadigan liniyalar, oilalar, podalarni vujudga keltirishga kerak bo‘ladi. Har qanday xo‘jalik –biologik belgining o‘zgarishi - bu ajralgan alohida hodisa emas, u o‘zgargan xossalar bilan korrelyativ munosabatida bo‘lgan belgilarning ham muqarrar sur’atda o‘zgarishga olib keladi. Nisbiy o‘zgaruvchanlik qonuni seleksiyalar uchun tanlashning asosi bo‘lib xizmat qiladi. SHuning uchun ekstereri –konstitutsional va mahsuldorlik belgilariga qarab tanlash sun’iy urug‘lashda ishga metodik yondoshish birligini tashkil qiladi. Ammo muttasil ravishda bir yoqlama, boshqa belgilarni hisobga olmay, faqat maxsuldorlik belgisi asosida tanlash qo‘ylarning yomonlashuviga kelishi, ularning konstitutsiyasi va sog‘ligini zayflashtirish mumkin (Valiev R.G. 1986)

Irsiylanish (nasldan – naslga o‘tish) genetik tafovutlar bilan bog‘lik bo‘lgan umumiy fenotipik o‘zgaruvchan likning ulushini ifodalaydi. Belgining irsiylanish koeffitsienti qancha past bo‘lsa, tanlash samaradorligi shuncha yukori bo‘ladi. Belgilarning irsiylanish koeffitsienti (X.F.Kushner 1979 bo‘yicha) birning ulushlari, quydagicha bo‘ladi: bir yoshlik chog‘idagi tirik vazni -0,40 -0,61; toza jun qirqilish – 0,38 junning mayinligi -0,57, junning mayinlik bo‘yicha muvozanati



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

(bir notekisligi)  -0,43 bunday tiplarning asosiy nasliy koeffitsienti esa -0,22 teng bo‘ladi  degan edi.

O‘zsifatlarini nasliga yaxshi o‘tkazadigan yukori mahsuldor nasldor qo‘chqorlardan doimiy foydalanish bilan birga sun’iy urug‘lantirishni keng qo‘llash  podaning nasldorlik sifatlarini qisqa muddat ichida ancha yaxshilash va mahsuldorligini oshirish imkonini beradi. (A.A.Rahimov 1967). Qorako‘lchilikda nasldor qo‘chqorlarni tanlash samaradorligini  V.M.YUdinva boshqalar (1964) tomonidan yaxshi ko‘rsatilgan.

V.M.YUdin qorako‘l qo‘ylarini saralashda uchta zavod qoidasiga amal qilgan:

Birinchi qoida: “O‘xshash o‘xshash bilan qo‘shilib, o‘xshash beradi”  yoki “yaxshi bilan yaxshi qo‘shilib, yaxshi beradi”  ushbu qoidaga  muvofiq, qo‘zilik chog‘idagi bonitirovka ma’lumotlariga, katta yoshidagi rivojlanishi, konstitutsiyasi va ekster’eriga, shuningdek, naslining sifatiga ko‘ra eng yaxshi hisoblangan qo‘chqorlar uchun normal darajada  rivojlangan,  lekin kelishilgan  jussali va mustahkamlash konstitutsiyasi eng yaxshi elita va birinchi klass sovliqlar saralab olinadi. Juftlar bir xillab – gomogen saralanganda sifatli nasl ko‘p olinadi.

Ikkinchi qoidasi: “YOmon yaxshi bilan qo‘shilsa  yaxshilanadi”  ushbu qoidaga muoviq, yomon sifat va barcha xossalariga yoki nomatlub  belgilarga  ega bshlgan (masalan, rivojlanishi, gavda tuzilishi, konstitutsiya tipi tug‘ilgan vaqtida yoki  qancha yoshida yomon bo‘lgan) qo‘ylar etuklik paytida normal rivojlangan, kelishgan jusasi, mustahkam konstitutsiyali, yuqori sifatli nasl bergan elita yoki klass  qo‘chqorlardan qochiriladi. SHunday qilib, sifatsiz yoki unga qimmatli bo‘lmagan sovliqlar urchitish uchun qabul qilingan tipdagi sifatli qo‘chqorlardan qochiriladi. Bunday saralash doimo olinadigan naslning yaxshilash shunga olib keladi.

Uchinchi  qoida:  “Notekis notekis bilan qo‘shilib, tekislashadi”. Ushbu qoidaga muofiq, shunday taxmin qilinadi, nozik konstitutsiyali qo‘ylarni mustahkam konstitutsiyali  qo‘ylar bilan juftlashtirish tekislashgan (o‘rtacha) mustahkamlash tipiga yaqin qo‘zilar olishga olib kelar ekan. Ammo bunday



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

saralashda xamisha ko‘zlangan maqsadga erishilaverilmaydi nuqsonli qo‘zilar soni ortib boradi. SHuning uchun gap jingalaklarni yirik – maydaligi to‘g‘risida borganda V.M.YUdin (1951) shu usuli qo‘llanish lozimligini ta’kidlagan. Ma’lumki, yangi tug‘ilgan qo‘zilar jingalakligi yirik – maydaligi ularning rivojlanishi darajasi, konstitutsiyasi va barra xossalari bilan bog‘liq bo‘ladi. SHu sabab jingalaklarning mayda yoki yirik tomonga o‘zgarishi o‘rtacha jingalaklikka nisbatan ko‘proq xodisa deb hisoblanadi. SHuning uchun mayda va yirik jingalakni sovliqlarga o‘rtacha jingalakli qo‘chqorlarni saralab qo‘shish har ikkita holda ham o‘rtacha jingalakni qo‘zilar soni ko‘p bo‘lishiga olib keladi. Qorako‘lchilikda naslchilik ishini yaxshilashdagi vazifa asosiy mahsulot hisoblangan qorako‘l teri etishtirishni ko‘paytirishni teri sifatini tobora yaxshilash, va zotni tobora takomillashtirish, ayniqsa qora rangdagi yarim doirali gul jingalaklik jaket nav teri etishtirish maqsadida qo‘ylarning qorako‘l zotini tobora takomillashtirishdan iborat. Naslchilik ishlari natijasida qorako‘l terilarning sifatini yaxshilash bilan birga asl zotli, yashash sharoitiga moslashgan qorako‘l qo‘ylarning sonini ko‘paytirish lozim. Qorako‘lchilikda nasllik ishlarida tanlash va juftlash usullarini etuk mollarni boqish va asrash, qo‘zilarni to‘g‘ri parvarish qilish hamda naslli qo‘chqorlarni talabga javob berarlik darajada va etarli miqdorda ko‘paytirish vazifalari bilan bir-biriga bog‘lab olib borilishiga kerak. Qorako‘l terining a’lo sifatini, jingalaklarining o‘rtacha va mayda gullarini, terisining zichligini va yupqaligini saqlash bilan bir qotorda uning satxini kattalashtirish ham naslchilik ishining muhim vazifalaridandir. Bu ishga avvalo seleksiya va naslchilik ishidanki, shuningdek zavod tipidagi qo‘ylardan to‘g‘ri foydalanish orqali erishiladi. Xo‘jalik boshqarish usullarini takomilashishi va dunyo bozori talabining o‘sishi bilan qorako‘l zoti bilan olib boriladigan nasl ishlari metodikasining takomillashiga va o‘zgarishga olib keladi.

Birinchi marta qorako‘lchilikda ilmiy asosda ishlarni yuritish sistemasini qorako‘l qo‘zilarning gul o‘lchamlarini va klasslarini xisobga olgan holda olimlaridan M.F.Ivanov ( 1964) va V.M.YUdin (1933) zootexnika klassifikatsiyani ishlab chiqdilar. SHu borada dunyo bozorining ma’lum



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

kelajagida qorako‘l zotini takomillashtirish, tanlash va saralashning yangi metodlarini ishlab chiqarishni talab qildi. Bu metodik ishlab chiqarishda qalam gullarning tipi va formasi hisobga olinib, asosiy ko‘rsatgich qilibterilarning tovar qiymati olindi.

V.M.YUdin (1943), I.N.Dyachkov va R.T.Pismennaya (1951) I.N.Dyachkov va boshqalar (1960) tomonidan yangi tug‘ilgan qo‘zilarning barra tiplari bo‘yicha klassifikatsiyasi ishlab chiqildi.Qorako‘l qo‘zilarni jaket, yassi, qovurg‘asimon va o‘sinqiragan barra tiplariga bo‘linishi o‘zini oqladi, qorako‘l qo‘ylar ustida olil boriladigan nasl ishlarining yo‘nalishini belgilab berdi. Teridagi jingalaklarning ma’lum shakllari gullariga, ularning qo‘zi terisida joylashishiga qarab qora rangli qorako‘l qo‘ylari to‘rt xil barra tipga bo‘linadi. Terisidagi jingalaklari yarim doira shaklida bo‘lgan tipdagi (jaket tipli) qo‘zilar, ularning terisida yarim doira o‘aklda qalam va dona gullar mavjud bo‘lib, terisi yupqa va qalinlashgan zich, jun qoplami quyuq, ipaksimon yaltiroq va jingalaklari baquvvat Bu tipli qo‘zilar ko‘pgina yaxshi etilgan, konstitutsiyasi mustahkam, teri zonasi ko‘p va terisi mayin bo‘ladi. Jingalaklarning ochilishi boshqa tomonga qaragan bo‘ladi, qalam gullari uzun va o‘rtacha uzunlikdagi tashqi ko‘rinishi aniq guldor bo‘ladi. Utipli qo‘zilar zotning etakchi xildir va bu qo‘ylarni qora rangli teri etishtiruvchi barcha qorako‘lchilik xo‘jaliklari keng miqyosida urchitishlari lozim.

Terisidagi jingalaklari o‘siqiragan tipdagi qo‘zilar (kavkaz tipi) ularning jun uzunligi birmuncha o‘sinqiragan, jingalaklari ko‘pgina bo‘sh dona gulsimon ulakdor etiluvchan emas va notekis joylashgan. Qo‘zilarning konstitutsichsi ko‘pol. Bu guruhga kiradigan qo‘zilar odatda kam boholik teri beradigan va yarim doira shakldagi qalam gulli mustahkam yoki nozik konstitutsiyali qo‘ylar bilan urchitilib yaxshilanishi lozim.

Terisidagi jingalaklari yassi bshlgan tipdagi qo‘zilar (ploskiy tip) yassi aylanma gulli, qisman chappa va yassi gullari bilan xarakterlanadi. Ammo ipaksimonligi a’lo darajada, jun qoplamining yaltiroqligi juda kuchli, terisi yupqa va zich bo‘ladi. Terisining xususiyati yassi 1 – navli qo‘zilarning eng yaxshi xiliga to‘g‘ri keladigan qo‘ylarni ma’lum maqsad bilan urchitish ham talabga



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

muofiqdir qovurg‘asimon shaklda bo‘lgan tipdagiqo‘zilar terisidagi jingalaklari qovurg‘asimon shaklda bo‘lgan qalam gullar, chappa va yassi gullarning aralash bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bularning jun qoplami qisqa, ipaksimon etarli darajada emas, quruq junlardan iborat bularning terisida ba’zan shaklsiz gullar ham bo‘ladi. Ba’zan qo‘zilarning terisi fakat chappa va yassi gullardan iborat. Jingalaklarning ochilishi ko‘pincha dum tomoniga bo‘ladi. Qorako‘l zotining ichida sifatli guruhlarning bo‘lishi bu zotni yanada takomillashtirish uchun sharoiti yaratib beradi. Qorako‘l eoti odatda toza holda urchitiladi. Ammo uzoq muddati bir zotning o‘z ichida urchitish olib borilsa bu zotning mahsuldorligi pasayib ketadi. Buning tuzatish uchun boo‘qa sharoitda tarbiyalangan naslli qo‘chqorlardan foydalaniladi. Qorako‘lchilikda ham ularning barra teri takomillashtirish uchun boshqa podada o‘stirilgan qo‘chqorlar keltirilib ularning urug‘i bilan mahalliy sovliqlar qochiriladi.

M.F.Ivanov (1964) qayd etadiki, podaning qonini tozolash uchun vaqt – vaqti bilan “boshqa xo‘jaliklardan qo‘chqorlar keltirib foylanish kerak”.

N.F. Nikolskiy (1952) o‘zining tajribasida ko‘rsatadiki, xar xil sharoitda o‘stirilgan qo‘chqorlardan foydalanish yaxshi natija beradi. I.YA.Averyanov (1951) qayd qiladiki, “boshqa xo‘jalikdan qo‘chqorlardan foydalanish shu vaqtda yaxshi natija beradiki, juftlanayotganda hayvonlarning xo‘jaliklarida yaylov oziq sharoti bir xil bo‘lsa. S.M.Bulagov(1969) yozadiki, “Muborak” va “Nishon” davlat naslchilik zavodlarining naslli qo‘chqorlaridan “O‘zbekiston” davlat naslchilik zavodida foydalanish yuqori sifatli terilarni ko‘proq ishlab chiqarishga imkon beradi. A.K.Lebedov (1976) ma’lumotiga ko‘ra, “Gagarin” nomli davlat naslchilik zavodining sur rangli qo‘zilar “Forish” savxozida ishlab chiqariladigan terining sifati yaxshilashda ijobiy ta’siri etganini qayd etgan. Terilarda jun qoplamining ipaksimonligi, yatiroqligi gullari yaxshilanib, qalam gullar uzunlashgan.

SH.M.Rizaev (1972) qayt etadiki, “Qorko‘l terisining sifatini yaxshilashda asosiy yo‘llardan biri boshqa xo‘jalikdan biri boshqa xo‘jalikdan naslli qo‘chqor keltirish va xshjaliklar aro qshchqorlar almashtirishdir”. Boshqa xo‘jalikdan keltirilgan qo‘chqorlardan muvaqqiyatli ravishda foydalanilgan to‘g‘risida



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

ma’lumotlarga A.A.Rahimov (1973) o‘z ishida ko‘rsatib o‘tadi. N.S.Gigineyshvili (1976) fikricha, qora qorako‘lchilik xo‘jaliklarida ko‘k rangli qorako‘l qo‘ylarini urchitishda xo‘jaliklar ora qo‘chqor almashtirishni keng qo‘llash kerak. Boshqa xo‘jaliklarning qo‘chqorlaridan effektli ravishda foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni B.N.Vasin va boshqalar (1971), A.A.Rahimov (1967) va boshqalar o‘z ishlarida ko‘rsatib o‘tganlar.

“G‘o‘zor” davlat naslchilik zavodiga “Nishon” davlat naslchilik zavodidan qora rangli qo‘chqorlarni keltirib, ko‘k rangli sovliqlar bilan juftlaganda ikki yil tajriba davomida maxaliy qo‘chqorlar nasliga 15,2% elita va 12,2% birinchi klass qo‘zilar ko‘proq olingan. (M.A.Koshvoy va YA.N.Nurillaev 1970), N.V.Borinova(1948), O.G.Valiev (1948), M.M.Rizaev(1969) lar ko‘rsatadiki, qora rangli qorako‘l qo‘ylarining sifatini yaxshilashda boo‘qa yuqori mahsuldorli podalarning qo‘chqorlaridan foydalanish kerak. Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarining yurgazish va qo‘zilarni baholash ( bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanmasida (2000) naslchilik ishining vazifasi va rejaga muofiq naslchilik xo‘jaliklaridan qo‘chqorlar keltirish tajribasini qo‘llash tavsiya etiladi. YUqorida keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki naslchilik ishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yganda naslchilik xo‘jaliklardan foydalanish qorako‘l qo‘ylarining mahsuldorligini takomillashtirishda asosiy zootexnika tadbirlaridan biridir. Afrika naslchilik ishi olib boradigan nemis olimlari ham gul uzunligini o‘rganish, gul to‘ri, shakli va barra tiplari bilan aloqodorligini aniqlaganlar. X.E.Matterning (1967) ma’lumotiga ko‘ra, gul eni bilan jun uzunligi orasidagi bog‘lanish koeffitsenti Z=0,524 ga teng. SHunday qilib, qorako‘lchilikda o‘zora mustaqil bo‘lgan to‘rtta barra tipborligi tan olindi va 1961yildagi “qorako‘l qo‘zilarni bonitirovka qilish” va naslchilik ishining asoslari qo‘llanmasiga” kiritildi. Lekin bu ham fakat qora rangli toza zotli qorako‘l qo‘zilarga ta’luqli edi. SHu qo‘llanmaning 1967 yildagiga esa olib borilgan tanlash va juftlash tajribalarning natijalari xam qo‘shildi, hamda toza zotli ko‘k va sur qorako‘l qo‘zilarni ham barra tiplarga bo‘linadigan bo‘ldi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

1974 – 1989 yillarda esa bonitirovkaning qo‘lanmasi qayta ishlab to‘ldirildi va qo‘zilar elita I va II klasslarga bo‘linadigan bo‘ldi. Sur rangli qo‘zilarga en solishda “ Buhoro, Qoraqolpoq va Surxondaryo zot tiplariga alohida ko‘rsatma – chizma ilova qilindi. 1967 yildagi instruksiyada yassi barra tipdagi qo‘zilarning kuchli ipaksimon va kuchli yaltiroqlikka ega bo‘lganlari alohida urchitishga, qovurg‘asimon barratipli qo‘zilar esa maqsadga muofiq emas deb, jaket tipli qo‘chqorlar bilan yaxshilanishi ko‘zda tutilgan edi, yassi bilan qovurg‘asimon tipli qo‘zilarni alohida suruv qilish tavsiya etildi. Bunday qilish ham suruvni tozalashda yaxshi jaket tipini qilishiga imkon yaratar va yassi bilan qovurg‘asimon tipni zotni takomillashtirishda ishlatishga imkon berar edi. SHu davrda johon bozorida yassi yupqa -1, qavurg‘asimon-1, navli terilar narhi jaket 1 navga yaqinlashib qolgan edi. 1989yilda siqarilgan (Moskva1989) naslchilik ishining qo‘llanmasida qorako‘l qo‘zilar tana jun uzunligiga qarab bo‘linadi kalta 8mm, o‘rta 9-11mm va uzun 12mmdan ziyod.

Qorako‘lchilikda jun tola uzunligi ko‘pgina omillarga bog‘liq asosan yaylov sharoitiga qaraydi. Bu esa yaylovlarda hosildorlik juda o‘zgaruvchan (S.YU.YUsupov va I.X.Ro‘zimurotov1995) Respublikamizda etishtirilayotgan qorako‘l terilari nafakat rang va navi bilan hatto ko‘pi xilma – xilligi bilan ham farq qiladi. Ana shunday xilma – xil bo‘lishida jun qoplamining pingmetatsiyasiga bog‘liqdir. Pingmentatsiyasi 3ta guruhga bo‘linadi.

1. Tim qora.
2. Qora.
3. Qorasi etarsiz.

Bular ichida tim qora rangigi ega bo‘lganlari juda qimmatli hisoblanib, ular o‘zining tabiy rangini juda uzoq muddatga o‘zgartirmay saqlab turadi. Qorasi etarsiz jun qoplamiga ega bo‘lgan qo‘zilar kam qimmatli hisoblanadi va ularning rangi tez o‘rganib ketadi. Terilar jun qoplami rangining och – to‘qligi, tolalar tarkibidagi maxsus modda pengmentlarning miqdoriga bog‘liqdir. Qorako‘l terisidagi jun tolasi rang beruvchi pingmentlar oqsillar turiga kiruvchi meznin moddasidan iborat. Qorako‘l qo‘zilar jun qoplamida pingmentlarning paydo



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

bo‘lishi jaryonini birinchi marta I.X.Maqsudov (1935) va F.A.Turdakovlar (1936) ta’riflab bergan edi. Avtorlarning yaqinlashiga qora rangdagi qo‘zilarning terisida dastlabki pingmetlar uchunchi oyda vujudga kela boshlarkan. N.P.Ropdugina (1963) qo‘zilarning jun qoplamining tarkibida ikki yani donador va erigan pingment (melanin) mavjudligini tasdiqladi. Bu pingmentlar turli rangdagi qo‘zilardan har xil miqdorda va nisbatda uchraydi. M.X.Arslonovning (1969) tekshirish natijalari shuni kursatadigan qo‘zining turli qismlaridagi tolasida shuningdek tolaning turli qismlarida mellanning miqdori har xil bo‘ladi. Eng ko‘p melanin tola piyozchasining tarkibida mavjud ekanligi aniqlangan. Avtor ma’lumotiga ko‘ra turli barra tipdagi qo‘zilar jun qoplamining tarkibida melanin miqdori turlicha bo‘ladi. Jaket barra tipdagi qo‘zilar junning tarkibida 16,9% melanin bo‘lganligi holda, yassi barra tipdagi qo‘zilarnikida esa 16,6% tashkil qiladi. Qavurg‘asimon barra tipdagi 16,0 %ni tashkil qiladi va kavkaz barra tipdagi qo‘zilarnikida 15,8% ni tashkil qiladi.

A.I.Inoyatov (1986) ma’lumotiga qaraganda, tim qora qo‘zilar jun jun tarkibida 14,6% melanin mavjud bo‘lsa, o‘rtacha qoralarnikida 13,5% va qorasi etarsiz qo‘zilarnikida 12,5% melanin bor ekan. Qorako‘l qo‘zilarning klasslari va navlari qancha yuqori bo‘lsa ular rangining to‘qligi ham o‘uncha yuqori bo‘ladi. A.I.Inayatov (1979) taqidlashiga ko‘ra, qora rangda qo‘zilar jun tolasining tarkibidagi melanin miqdori ota – onasining rangiga qarab ham turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan: qora rangdagi va qo‘chqordan olingan qora qo‘zilar jun tolasining tarkibida 10,9% melanin mavjud bo‘lgan, xolda qora sovlik bilan sur qo‘chqorni juflashtirish natijasida olingan qora qo‘zilarniki 10,6% ota – onasi tilla sur bo‘lgan qora qo‘zilar juni tarkibi 7,6% melanin bor. Qora qo‘zilarga nisbatan rangdor qo‘zilar jun melanin tarkibida melanin ancha kam bo‘ladi.

Masalan: qora rangdor sovliq qo‘chqorlardan olingan qora qo‘zilar junida pingmentlar miqdori 100% deb olsak, sur qo‘zilarning jun tolasidagi melanin miqdori 50% ni, jigar rang qo‘zilarjunidagi 38,0% va guligaz qo‘zilarning junidagi pingment 32,0% ni tashkil etadi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yurgazish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma (2000) va terilarni tovar xususiyatlarini o‘rganish (O‘zRST 041-95) talablari asosida qora qo‘zilari va terilarni och to‘qligiga katta e’tibor berilgan.

Instruksiyaga muvofiq to‘q qora qo‘zilar va terilar 10 ball, o‘rtacha qora qo‘zilar va terilar 6 ball va och qora qo‘zilar va terilar 3 ball bilan baholoshi muhimligi ko‘rsatilgan.

Qorako‘l qo‘zilar terisi sanoatda bo‘yash yo‘li bilan to‘q qora rangga aylantiriladi. Biroz qora qorako‘l qo‘zilar jun qoplami rangining och to‘qligi ularning biologik xususiyatlari bilan bog‘langan bo‘lganligi tufayli teri sifatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. V.I.Setayanovskayaning (1960) ta’kidlashiga qo‘zilarning rangi, organzmning sog‘lomligi, konstitutsiyasi va xayot faoliyatini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos belgi (indikator) dir.

Zot ichida (xududiy) tip – Aniq xo‘jalik va tabiy sharoitda odamlarning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan qorako‘l qo‘y zotining guruhi hisoblanib, uzotning umumiy xususiyatlari bilan bir qatorda o‘ziga xos mahsuldorlik, tana tuzilishi, konstitutsiyasi, urchitish xududiga moslashish, kasallik va tashqi muhit ta’siriga chidamli, yuqori samara berish xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Zavod tipi – naslchilik zavodi, naslchilik xo‘jaligi va ularning ta’siri doirasidagi xo‘jaliklarda seleksiyalarning uzoq muddatli ijodiy faoliyati natijasida liniyali urchitish va ularning klasslarini moslashtirish natijasida yaratilgan qorako‘l zotining chegaralangan guruhi bo‘lib, u o‘z spetsifik morfologik, fizologik, mahsuldorlik xususiyatlarini, ma’lum xo‘jaliklarda urchitiladigan qo‘ylarga ham xo‘jalik boy belgilarni mujassamlashtirilgan yangi tip hisoblanadi. Zavod tipi - yangiligi, farqlanish, o‘xshashligi va turg‘unligi bilan xarakterlarinilozim. (X.Giyosov va boshqalar 2001.).

Qora qorako‘l terilarining navlari gullarning shakli va xili uzunligi yoki teri to‘qmasining qalinligiga qarab qora qorako‘l terilar barra (qalam – jaket, qovurg‘asimon, yassi va o‘sikgul) va navlarga bo‘linadi (O‘zRST 641-95).



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Seleksiya samaradaorligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri belgilarning naslga beriluvchanligidir. Naslga beriluvchanlik koeffitsenti yaxshi yo'lga qo'yilgan seleksiya sharoitda, qanchalik yuqori bo'lsa seleksiya samarasi ham shunga yuqori bo'ladi va aksincha, belgilarning naslga beriluvchanlik koeffitsenti past bo'lgan sharoitda maqsadli seleksiya samarasiga etish qiyin. Tadqiqotlarning natijalari ko'rsatishcha, kelib chiqishi ma'lum naslga kuchli beriladigan eksterer, konstitutsiya, mahsuldorlik va boshqa ko'rsatgichlar bo'yicha o'xshash seleksiya yutug'ini yaratish rejasi talablariga javob beradigan etarli miqdordagi qo'ylarning mavjudligi. Bu sharoitda toza zotli naslli qo'ylar soni qo'ydagidan kam bo'lmasligi lozim. (X.Giyosov 2001).

1-jadval

| Qo'ylar | Seleksiya | YUtug'i | Kategoriyasi |
|---|---|---|---|
| Guruhi | YAngi yoki takom. zot ichidagi tip | YAngi zavod tipi | YAngi zavod liniyasi |
| Qorako'l zotli qo'ylar (qora, ko'k, sur rangli) ona qo'ylar. | 5000 | 3000 | 500 |
| YAxshilovchi naslli qo'chqorlar | 100 | 60 | 10 |
| Kamyob rangli qorako'l zotli qo'ylar:ona qo'ylar. | - | 1000 | 250 |
| YAxshilovchi naslli qo'chqorlar. | - | 20 | 10 |

M.D.Zokirov va boshqalar (1976) ma'lumotiga ko'ra, to'la konservalash, oshlash jaryonida qorako'l terilar yuzasining kattaligi asl xoliga qaytadi. Btroq quritish jarayonida temperatura va boshqalarga qarab terilarning kichrayishi anchagina o'zgarib turadi. Odatdagi quritish maydonchasida oftobga yoyib quritilganda quruq tuzlangan terilar yuzasining kattaligiga nisbatan kichrayishi 11,0% ni, odatdagi maydonchada soyada quritilganda 7,32% ni, odatdagi



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

maydonchada kechasi quritilganda -7,11% ni, beton yotkizilgan maydonchada oftobda quritilganda 10,99% ni, ikkinchi marta tortib qo‘yib, quritilganda 5,19% ni, mahkamlab qo‘yibmexanik usulda quritilganda -2,05% ni tashkil qildi. S.A.Asamov vaboshqalar (1988) yaylov oziqa sharoitida yaxshi joylashgan xo‘jaliklarda (“Konimex”, “Nishon” davlat naslchilik zavodi va “CHimqo‘rg‘on sovxozi) qorako‘l terilar vazni oziqa kamroqsharoitda joylashgan xo‘jaliklardagiga nisbatan (“Jongeldi” naslchilik xo‘jaligi va “Qoraqata” savxozi) 8-22% ortiqdir. M.D.Zokirov va K.K.Karimov (1987) tajribalarida har xil sort va ranglarda mansub qorako‘l terilar o‘rtasida xam teri to‘qmasining qalinligi jihatdan mo‘ayyan tofovutlar bor.  Moskva  jaket,  kirpuk va yassi yupqa 1 sonlariga kiruvchi  qorako‘l terilar teri to‘qmasining nihoyatda yupqa ekanligi bilan; jaket – II, qovurg‘asimon yupqa -1 va yassi qalin-1 sortlari o‘rtacha qalinligi bilan Kavkaz qalin-1, kavkaz yupqa -1, qalin jaket va qovurg‘asimon  qalin-1, sortlari esa mag‘zli ekanligi bilan xarakterlanadi. M.D.Zokirovva boshqalar (1999). SHuni aytib o‘tish kerakki,qorakshlning qimmatli xisoblanuvchi jaket 1, kirpuk, qovurg‘asimon yupqa -1 navlari tavor sathi bo‘yicha bir xil tekislikda uzun jingalaklariva kam qimmatli hisoblanadigan. Kavkaz qalin-1, kavkazyupqa-1,navlariga esa uncha tekis emas, ancha kalta jingalaklar xarakterlidir. M.D.Zokirov (1999). SHuni aytib o‘tish kerakki, qorako‘lning qimmatli hisoblanuvchi jaket 1, kirpuk, qovurg‘asimon yupqa1 navlariga tovar sathi bo‘yicha bir xil teksiklikda uzun jingalaklar va kam qimmatli hisoblanadigan – Kavkaz qalin 1, kavkaz yupqa 1, navlariga esa unchalik tekis bo‘lmagan ancha kalta jingalaklar  xarakterlidir. Boshqa sortlarga mansub terilarning jingalakgi o‘rta uzunlikda bo‘lib, tovar yuzasi bo‘yicha o‘rtamiyona bir tekis tarqalgandir. M.SH.Ikandarov (1972) ma’lumotiga ko‘ra, chuqur seleksiya – naslchilik  ishlari sitemasini ravishda olib borilayotgan xo‘jaliklarda “ Muborak”, “O‘zbekiston” , “Karnab”, “Nishon”, “Konmex”, va “Jongeldi” davlat naslchilik zavodlarida qorako‘l teri mahsuloti juda qimmatli, uzun va tovar yuzalarida bir tekis joylashganligi bilan ajralib turadi.  I.N.Dyachkov (1966) qorakshl qo‘ylari gul



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

jingalaklari uzunligiga qarab tanlash va seleksiyalash yuksak darajada samarali ekanligini aniqladilar.

A.Ibragimovning (1978) tadqiqot natijalariga ko‘ra turli zavod tipdagi qo‘ylardan olingan  terilar jun qoplamining ipaksimonligi turlicha bo‘ladi. Avtorning fikricha “ Navoiy” va “Sverdlov” zavod tiplarning terilari, “Qorako‘l”, “Nurota”, va “Qizilqum” zavod tiplarinikidan ipaksimonligi bo‘yicha yuqori turadi. V.G.Valiev (1974) ma’lumotiga ko‘ra turli zavod tipidagi qo‘chqorlardan olingan avlodlar jun qoplamining ipaksimonlik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Avtorning ta’qidlashicha, pamuk qo‘chqorlaridan olingan avlodlar orasida juni o‘ta ipaksimonlikka ega bshlgan qo‘zilar ko‘proq uchraydi.  Bu esa “Konimex” davlat naslchilik zavodi qo‘ylarining  ipaksimonlik darajasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biz bitiruv malakaviy ishni bajarishimizda turli rangli qo‘ylarni juftlash natijalaridan foydalanishning ayrim natijalarini qo‘zilarni xususiyatlarini taqqoslab o‘rganishni maqsad qilib oldik.

**Respublikada chorvachilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2013 yil davomida olib borilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot.**

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan shaxsiy yordamchi, dehkon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollari sonini ko‘paytirish rag‘batlantirish, servis xizmatlari tarmog‘ini tashkil etishga doir chora – tadbirlar dasturining amalga oshirilishi natijasida  chorvachilikni rivojlantirishda ijobiy siljishlar qayd etilmoqda.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida barcha toifa xo‘jaliklarida 2013yil qoramollar bosh soni 10607,0 ming boshga etkazilib, 2012 yilga nisbatan o‘sish darajasi  4,6 foizga, shundan sigirlar bosh soni 4020,5 ming bosh yoki 2,2 foizga, qo‘y va echkilar bosh soni 17720,2 ming bosh yoki 3,5 foizga, parrandalar bosh soni 52337,2 ming bosh yoki 10,2 foizga oshdi.

SHuningdek, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1787,5 ming tonna yoki 7,0 foiz ko‘p tirik vaznda go‘sht, 7884,7 ming tonna, 7,8 foiz sut, 4379,2 mln dona, 13,1foiz tuxum ishlab chiqarildi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Joriy yilda ham Vazirlar mahkamasining tomonidan tasdiqlangan dasturi ijrosi bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi.

SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklaridagi chorva mollariga mavjud 2591ta zooveterinariya punktlari orqali 9792,1 mln so‘mdan ortiq zooveterinariya servis xizmatlari ko‘rsatildi, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish darajasi 7,4 foizga oshdi.

SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklaridagi chorva mollari naslini yaxshilash maqsadida joriy yilda 1920 ming boshdan ortiq sigir va urg‘ochi tanalar su’niy urug‘lantirildi, 2012 yilga o‘sish darajasi 6,6 foiz oshdi.

Su’niy urug‘lantirishni amalga oshirish maqsadida o‘zimizda mahaliy sharoitda naslli buqalarning muzlatilgan urug‘larini qadoqlash tashkil etilgan bo‘lib, joriy yilda 3671,2 ming dozadan ortiq naslli buqalarning urug‘i etkazib berildi, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish darajasi 42,4 foizga oshdi.

Respublikamizda hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan 448 ta qoramolchilik naslchilik xo‘jaliklarida bugungi kunda 8,7 ming bosh naslli mollar tayyorlanib auksionlarda sotish tashkil etildi, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish darajasi 20,6 foizga ko‘p.

2013 yil mobaynida xorijiy mamlakatlardan 8327 bosh naslli mollar olib kelinib, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish darajasi 70,4 foizga ko‘p. Ularning umumiy soni 36 ming 590 boshdan oshdi.

SHuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 21 noyabrdagi 01-03-34-5-sonli, 2013yil 18 apreldagi 01-03-34-5-sonli, 2013yil maydagi 01-03-34-18-sonli, 2013yil 14 maydagi 01-03-34-18-sonli, 2013yil 24 maydagi 01-03-34-18-sonli, dastur va loyihalarga asosan 2013 yil yakuniga chorvachilik sohosida jami 8 ming 545 ta loyiha amalga oshirildi.

Ushbu maqsadlarga jami 534 mlrd. 983 mln. so‘m, shu jumladan 163 mlrd. 206 mln. so‘mlik bank kreditlari yo‘naltirilib, 72 ming 996 ta yangi ish o‘rinlari barpo etildi.

Jumladan, qoramolchilik yo‘nalishlarida jami 1390 ta loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, ularda chorva mollar bosh soni 59 ming 375 boshni tashkil etdi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Ushbu yo'nalishga jami 246 mlrd. 453 mln. so'm, shu jumladan 96 mlrd. 406 mln. so'mlik bank kreditlari jalb etilib, 4447 ta yangi ish o'rinlari barpo etildi.

Parrandachilik yo'nalishidagi jami 675 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, ularda parrandalar bosh soni 6 mln. 829 ming boshni tashkil etdi. Ushbu yo'nalishdagi loyihalar uchun jami 134 mlrd. 597 mln. so'm, shu jumladan 43 mlrd. 784 mln. so'mlik bank kreditlari sarflanib, 3009ta yangi ishchi o'rinlari tashkil etildi.

Bundan tashqari sanoat usulida parranda boqishni tashkil etish yo'nalishi bo'yicha jami 4349 ta loyihalar amalga oshirilgan bo'lib, ularga etkazib berilayotgan jo'jalar soni 7 mln. 12 ming boshni tashkil etdi. Ushbu yo'nalishdagi loyihalar uchun jami 106 mlrd. 803 mln. so'mlik bank kreditlari o'zlashtirilib yangidan 61937 ta ishchi o'rinlar tashkil etildi.

Baliqchilik yo'nalishdagi jami 662 ta loyiha amalga oshirilib, ushbu loyihalarga jami 27 mlrd. 390 mln. so'm, jumladan 8 mln. so'm bank kreditlar jalb etilib, 1805 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Asalarichilik yo'nalishidagi jami 1469 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, ushbu maqsadlarga jami 19 mlrd. 740 mln. so'm, o'u jumladan, 3 mlrd. 778 mln. so'mlik, kredit mablag'lari jalb etildi hamda 1798 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

YUqoridagilardan kelib chiqib, 2014 yil uchun xozirdan puxta zamin yaratish maqsadida har bir tumanlarda aniq hisob-kitoblar asoaida hududiy Oziq-ovqat dasturlari tasdiqlandi.

Dasturga asosan:

Respublikamizda qoramolchilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik loyihalari bo'yicha 354,4 mlrd. so'mlik 2256 ta loyihalar amalga oshiriladi.

Natijalar qoramol bosh soni 32 ming 695 boshga (106%), parranda bosh soni 4,9 mlnga (107%) ko'payadi.

SHuningdek, go'sht ishlab chiqarish 3 ming 114 tonnaga etkazish (107%), sut 42 ming 901 tonna (109%), tuxum 868 mln. dona (130%), baliq 2,4ming dona (110%), asal 301 tonna (135%) etkazish rejalashtirilgan.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Bundan tashqari, chetdan 8000 ming bosh yuqori mahsuldor naslli qoramollar olib kelish rejalashtirilgan.

Natijada 2014 yilda qo‘shimcha 12438 ta yangi ish o‘rinlari yaratiladi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

## II. XO‘JALIKNING TASNIFI

Institut o‘quv tajriba xo‘jaligi Camarqand viloyat Oqdaryo tumanida joylashgan bo‘lib, 2004 yilda tashkil etilgan. O‘quv tajriba xo‘jaligi viloyat markazidan 8 km, tuman markazidan 25 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, er maydoni tekis, qumloq, er osti suvlari 4 - 5 m, ayrim joylarda 6 - 8 m. chuqurlikda joylashgan, iqlim sharoiti yil fasllarining kelishiga karab qish oylari 7-$8^0$ S sovuq, yoz oylari esa issiq harorat +$35^0$ +$40^0$ S gacha ko‘tariladi.

Xo‘jalik raxbari Usmonov Aslom faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Xo‘jalikning er maydoni 50 gektar bo‘lib, molxona va uchastkalar 6 gektarni tashkil etadi. SHundan 44 gektari dehqonchilikka ixtisoslashtirilgan.

O‘quv tajriba markazida 3 ta bino bo‘lib, ular ko‘ndalang joylashgan 2 ta eshik, 6 ta derazadan tashkil topgan. Binolar maydoni 6 gektarni tashkil etadi.

Xo‘jalikda jami 65 bosh qoramol bo‘lib, har bir bosh uchun 2,2 $m^2$ joy ajratilgan. Zoogigiena talablariga rioya qilgan holda binoning ichi har oyda 2 marta dezinfeksiya qilinadi.

Xo‘jalikda 15 bosh sog‘in sigir bo‘lib, o‘quv tajriba xo‘jaligi bo‘lganligi uchun sut topshirish rejalashtirilmagan sog‘ib olingan sut bolalar bog‘chalariga va kasalxonalarga tarqatilib beriladi. Bundan tashqari 9 bosh bo‘rdoqiga boqiladigan, 2 bosh g‘unojin, 18 bosh buzoqlar, 72 bosh qo‘y, 2 bosh tuya saqlanadi.

O‘quv tajriba xo‘jaligida bo‘lgan qishloq xo‘jalik hayvonlaridan talabalarni o‘quv amaliyotlarini o‘tkazish va ilmiy tatqiqot ishlari o‘tkazishda keng ko‘lamda foydalaniladi.

Institut rektorining tashabbusi bilan 2012 – yilda o‘quv tajriba xo‘jaligiga Nurobod tumanidan 10 bosh qorako‘l zotli qo‘ylar olib kelindi. Bugungi kunga kelib xo‘jalikda jami 92 bosh qo‘y bo‘lib shulardan 45 boshini qorako‘l zotli qo‘ylar tashkil etadi.

Xo‘jalikning iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda o‘quv tajriba xo‘jaligiga qarashli 50 ga maydon bo‘lib shundan paxta, g‘alla,bog‘dorchilik, sabzavodchilik, qishloq xo‘jalik hayvonlari uchun ozuqa bob ekinlar ekiladi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

**OXIRGI 3 YILDA XO‘JALIKDAGI ERDAN FOYDALANISH (GA)**

| **Ko‘rsatkichlar** | 2012 | 2013 | 2012-yilda 2013-yilga nisbatan |
|---|---|---|---|
| Umumiy er maydoni | 50 | 50 | 50 |
| Jami qishloq xo‘jalik erlari | 44 | 44 | 44 |
| SHundan sug‘oriladigan erlar | 44 | 44 | 44 |
| YAylovlar | 6 | 6,5 | 6,5 |
| Ko‘p yillik daraxtlar | 0,5 | 0,5 | 0,5 |

Xo‘jalikning umumiy er maydonidan qishloq xo‘jalik hayvonlarini boqish uchun jami 6 ga maydon ajratilgan bu xo‘jalikda ozuqa etishtirish uchun juda kam hisoblanadi. Xo‘jalikda chorva mollarini oziqlantirish uchun ozuqa bazasi etishmaydi. Beda maydoni uchun jami 4 ga maydon ajratilgan ozuqalar asosan g‘alla ekiladigan maydonlardan somon yig‘ish va g‘alladan bo‘shagan erlarga takroriy ekin sifatida chorva mollariga ko‘k ozuqa sifatida edirish uchun hamda silos tayyorlash va donli ozuqalar etishtirish maqsadida makkajo‘xori ekiladi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com



**QORAMOLLARNI SAQLANISH JOYI**



**QORAMOLLARNI OZIQLANTIRISH SHAROITI**

O‘quv tajriba xo‘jaligida bo‘lgan qishloq xo‘jalik hayvonlarining bosh soni doyimiy ravishda ma’lum miqdorda o‘zgarib turadi chunki institut vivariysida veterinariya va zootexniya yo‘nalishi talabalarining o‘quv jarayonida qoramollardan, qo‘y, ot va eshaklardan doyimiy ravishda foydalanilib turiladi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Vivariy uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jalik hayvonlari o‘quv tajriba xo‘jaligidan keltiriladi.

**O‘QUV TAJRIBA XO‘JALIGIDAGIMOLLARNING BOSH SONI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT**

| № | GURUHLAR | BOSH SONI | |
|---|---|---|---|
| | | **2013 yil** | **2014 yil** |
| **1** | **Jami qoramollar** | **64** | **61** |
| 2 | 6 oygacha buzoqlar | 18 | 22 |
| 3 | 6 oydan-1 yoshgacha | 18 | 15 |
| 4 | 1-2 yosh qoramollar | 6 | 2 |
| 5 | Buqalar | 1 | 1 |
| 6 | G‘o‘najin | 4 | 1 |
| 7 | Sigirlar | 17 | 20 |
| **1** | **Jami qo‘y va echkilar** | **75** | **87** |
| 2 | Sovliqlar | 47 | 51 |
| 3 | Quchqorlar | 3 | 2 |
| 4 | Quzilar | 22 | 30 |
| 5 | Echkilar | 3 | 4 |
| **1** | **TUYALAR** | **2** | **2** |

- jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki o‘quv tajriba xo‘jaligidagi chorva mollarining bosh soni yildan – yilga oshirish rejalashtirilmagan chunki chorva mollari uchun ajratilgan er maydoni chegaralangan. O‘quv tajriba xo‘jaligidagi chorva mollaridan mahsulot olish ko‘zda tutilmagan shuning uchun bo‘rdoqiga boqilgan qoramollarni sotib barcha chorva hayvonlari uchun kansentrat ozuqalar shu jumladan qo‘shimcha materiallar qurilish materiallari sotib olinadi. Barchamizga ma’lumki har yili yangi yil bayrami oldidan institut xodimlari uchun arzonlashtirilgan narxda go‘sht sotiladi.

## III. TAJRIBA O‘TKAZISH MATERIALLARI VA USULLARI

Agar sohani rivojlantirish mamlakatimiz aholisini qishloq xo‘jalik mahsulotlari, sanoatni xom ashyo bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa chorvachilikni rivolantirish hozirgi davirdagi muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanada.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Qo‘ylar, qoramol va boshqa hayvonlarga nisbatan ser harakat tuyoqlari va oyoqlari baquvvat, o‘tkir tishlari past va siyrak o‘sgan o‘tlarni, hatto krga to‘kilgan mayda barklarni terib olib istemol qilish qobiliyatiga egadir. Ular achchiq, sassiq hidli, tikali o‘tlarni ham istemol qiladi.

O‘qychilikni rivojlantirish cho‘l va yarim cho‘l, tog‘ bag‘ri yaylovlari va pichan zorlarida o‘sadigan ozuqa resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi qo‘ylar jazirama issiqga, sovuqga va suvsizlikga ham chidamli. Bu tarmoqni rivojlantirish qo‘shimcha kapital qo‘yilma, mehnat resurslarini ham talab qilmaydi.

Qo‘ychilik aholi uchun ozuq ovqat, go‘sht, yog‘, chut va sanoat uchun xom ashyo jun, qorako‘l teri, teri etkazib beradi. O‘zbekistonda rivojlantirilayotgan qo‘y zotlarini quydagi guruhlarga bo‘lib tahlil qilish va iqtisodiy baholash maqsadga muvofiq.

1- guruh- mayin junli qo‘ychilik;
2- guruh- yarim mayin junli qo‘ychilik;
3- guruh- qorako‘l teri uchun qo‘ychilik;
4- guruh- po‘stinbob teri beradigan qo‘ychilik;
5- guruh- go‘sht – yog‘ beradigan qo‘ychilik;

O‘zbekistonda 1- va 2-guruhga kiradigan qo‘ychilik zotlari juda kam miqdorda rivojlantirilgan. Jun balansini mayin va yarim mayin jun tashkil etadi; Qolgan guruh qo‘ylardan dag‘al jun olinadi. Barcha turdagi qo‘y va echkilarning go‘shtlari Respublika go‘sht balansida 10 – 15 % ni tashkil qiladi.

Qo‘ylarning istemol qiladigan tabiiy yayloq ozuqalari iqtisodiy baholanmaydi, natijada qo‘ychilikdan nisbatan arzon ozuq ovqatlar hamda xom ashyolar ishlab chiqariladi.

SHu maqsadda biz qo‘zilarni o‘sish rivojlanishiga ona qo‘ylarni bo‘g‘ozlik davrida to‘la qiymatli oziqlantirishning samaradorligini aniqlash uchun institutimizning o‘quv tajriba xo‘jaligida ilmiy tatqiqotlar o‘tkazishni rejalashtirdik.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Bo‘g‘oz qo‘ylarning to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabini qondirish uchun fiziologik xolatini me’yor darajasida bo‘lishini ta’minlaydi. Xomilaning o‘sish rivojlanishiga bo‘g‘oz qo‘ylarni to‘liq qiymatli oziqlantirish ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. SHuni o‘rganish maqsadida institutimizning o‘quv tajriba xo‘jaligida bo‘lgan qorako‘l zotli bo‘g‘oz qo‘ylardan 20 bosh ajratib olib anolog bo‘yicha 2 guruhga bo‘lindi. 1 – g‘uruh nazorat guruhi qilib olindi va xo‘jalik sharoitidagi ratsion bilan oziqlantirilda va ratsioni tarkibiga taurli o‘t pichani, kuzgi bug‘doy somoni, yantoq pichani, makkajo‘xori silosi va arpa doni kiritildi.

2 – guruhdagi bo‘g‘oz qo‘ylartajriba guruhi bo‘lib ularni to‘liq qiymatli ratsion bilan oziqlantirish maqsadida ratsion tarkibigi proteinga, vitaminlarga boy bo‘lgan ozuqalardan qo‘shib mneral moddalar bo‘lgan talabini qondirish uchun diammoniy fasfat qo‘shib oziqlantiriladi. Nazorat guruhini ratsioni tarkibidagi turli o‘t pichanini to‘yimliligiga mos ravishda beda pichani bilan almashtirilib ratsion tuzildi va fosforga bo‘lgan talabini qondirish uchun DAF qo‘shib berildi.

Tajriba bo‘g‘oz ona qo‘ylarning bo‘g‘ozligini ikkinchi davrida 2 oy davomida o‘tkazildi. Tajriba boshida va 1 oyda bir marta tarozidan o‘tkazilib kunlik o‘sishi va semizlik darajasi o‘rganib borildi. Mutloq va nisbiy o‘sishi tahlil qilinib semizlik darajasini tug‘iladigan qo‘zilarning tirik vazniga ta’siri aniqlanadi.

Tajriba natijasida olingan ma’lumotlar asosida iqtisodiy samaradorlik aniqlanib shu asosda xulosalar va ishlab chiqarishga taklif tafsiyalar beriladi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# IV. ASOSIY QISIM

## 4.1. CHORVACHILIKDA QO‘YCHILIKNING TUTGAN O‘RNI VA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Respublikamizda agrar sohani rivojlantirishda asosiy tarmoqlardan biri bo‘lgan qo‘ychilikni yuqori darajada o‘sishini ta’minlashga mamlakatimiz Prezidenti tomonidan alohida e’tibor qaratilgan. SHuning uchun qorako‘lchilik xo‘jaliklari xususiylashtirilmagan, hozirgi kungacha davlat tasarrufida bo‘lib jamoa va shirkat xo‘jaliklari sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Qo‘ychilik ham chorvachilikning etakchi sohalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu soha ham mahsuldorlik yo‘nalishiga qarab jun, go‘sht, go‘sht – yog‘, go‘shtli – jundor, qorako‘l va Romanov zotli qo‘ylarga bo‘linadi. Har bir



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

mahsuldorlik yo‘nalishiga mansub bo‘lgan qo‘zi zotlaridan yuqori darajada mahsulot olish uchun ularning zotiga, mahsuldorlik yo‘nalishiga, fiziologik xolatiga, yoshiga va tirik vazniga qarab to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabi bo‘yicha ilmiy asoslangan holda to‘la qiymatli ratsion tuzib, ratsion asosida oziqlantirish ularning mahsuldorligini oshirishga olib keladi.

Qo‘ylarni oziqlantirishni to‘g‘ri tashkil etish, nasilli qo‘chqorlardan unumli foydalanishda, har 100 bosh sovliqdan olinadigan qo‘zilar sonini yuqori bo‘lishida, emizikli qo‘ylarning sut mahsuldorligini,va yosh qo‘zilarning o‘sish – rivojlanish darajasini yuqori bo‘lishida muhim ahamiyatga ega. Qo‘ylarni oziqlantirish ratsionini tuzishda sifatli ozuqalardan foydalanish va A.P. kolashnikovning (1988) “CHorva mollarini oziqlantirish normalari va ratsionlari” kitobida berilgan me’yorlar asosida ratsion tuzib ilmiy asosda oziqlantirish maqsadga muvofiq.

## 4.2. Qo‘ylarni to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabi

Qo‘y va echkilar uchun ozuqa normalari mahsuldorlik yo‘nalishi bo‘yicha ishlab chiqarilgan bo‘lib,yaylovdan foydalanmaydigan hayvonlar uchun tuzilgandir. Agar qo‘y va echkilar yaylovda boqilganda bu norma 15 – 20 % ko‘paytiriladi.

Ozuqa normasi qo‘ylarning jinsi, yoshi, tirk vazni, semizlik darajasi va ulardan olinadigan malumot miqdoriga qarab belgilanib, u 18 – 19 ko‘rsatkich bilan ifoda etiladi.

YOsh qo‘ylarning o‘sishi va ozg‘in qo‘ylarni 1 kg semirishi uchun 5 ozuq birligi va shunga mos ravishda boshqa to‘yimli moddalar normaga qo‘shimcha tarzda beriladi.

Qo‘ylar ratsionidagi quruq moddaning optimal me’yoriga alohida e’tibor berish kerak. Qo‘ylar 100 kg tirik vazni uchun 3,2 - 3,8 kg quruq modda istemol qiladi. Qo‘chqorlar ratsionining 1 kg quruq moddasiga 0,85 – 0,90 ozuq birligi to‘g‘ri kelishi kerak. Sovliqlar uchun bu ko‘rsatkich 0,6 – 0,7 ozuq birligiga teng.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Ratsionda energiyaning ietishmasligi hamma hayvonlardagi singari oqibatiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari qo‘y va echkilarda juning o‘sishini sekinlashuvi va sifatini buzilishi (“och ingichkalik” holati) kuzatiladi. Hazimlanuvchi proteinga bo‘lgan talab qorako‘l qo‘chqorlarida 1 ozuq birligi uchun 114 – 115 ni, dumbali qo‘chqorlar uchun esa 108 – 109 gr ni tashkil qiladi.

Sovliqlar bo‘g‘ozligining birinchi davrida 1 ozuq birligiga 0,58 – 0,90 gr XP to‘g‘ri kelsa, so‘ngi 7 – 8 haftasida 95 – 100 gr ga teng bo‘ladi. YOsh hayvonlarda proteinga bo‘lgan talab 10 – 15% ortiq bo‘ladi.

Garchand norma ko‘rsatkichlarida tozalanmagan kletchatka ,qand kraxmal va AEM lar miqdori keltirilmagan bo‘lsada, barcha kovshovchi hayvonlar singari ularning ratsiondagi miqdorini nazorat qilib borish kerak.

Ratsionda tozalanmagan kletchatkani miqdori 6 oyligigacha qo‘zilarda quruq moddaning 13%, 15 – 17 oyligida 25% va katta yoshli qo‘zilarda 27% dan ortmasligi kerak. Agar ratsionida kletchatkaning miqdori ortib ketsa, barcha to‘yimli moddalarning hazm bo‘lishi pasayadi.

Qo‘ylarning qandga bo‘lgan talabi ularning 1 kg tirik vazni uchun 2,5 – 3,0 gr ni tashkil qilib, qand protein nisbati 0,5 – 0,9 bo‘lishi kerak.

Qo‘ylar ratsionida mikroelementlardan kalsiy, fosfor, magniy, osh tuzi va oltingugurtlar miqdori nazorat qilinadi. Ular orasida oltingugurtni alohida ahamiyati bor. Jun tolasining tarkibiga kiruvchi asosiy modda karatin oqsili bo‘lib, unda 2,5 – 5,5 % oltingugurt moddasi bor. Metionin, sistin va sisteinlar mikro organizmlar tomonidan sintezlanishi uchun ham oltingugurt elementi kerak bo‘ladi. Dag‘al junlarda 3,55 – 5,40 % sistin, 0,44% metionin borligini hamda mayin jun tarkibida esa 9,1 – 11,1 % meteonin va 0,67 % sistin bo‘lishini A. A. Patashkin va A. B. Lilar (1961)[1] aytib o‘tganlar. Bu elementlarning jun tolasini o‘sishini sekinlashtiradi. Mustahkamligini pasaytiradi. S va V guruh vitaminlarining faoliyatini oshirishda va kobolt hamda mis bilan birgalikda qonni sintezlashida marganets qatnashadi deb uqtiradi A.
V. Modyanov (1978)[2]. Qolgan makroelementlarning ta’siri qoramollardagi singaridar



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

### 4.3. Qorako‘lchilik muammolari va echimlari

O‘zbekiston Respublikasi keskin o‘zgaruvchan iqlimga ega bo‘lib, uning umumiy er maydonning qariyb 25 mln. Gektarini, ya’ni 56,7 foizini cho‘l, yarim cho‘l, dasht hamda tabiiy yaylovlar tashkil etadi. Bu yaylovlarning asosiy ozuqa manbai iqlim sharoitiga bog‘liq holda vegetatsiya davri qisqa efemer o‘tlar, yarim buta va butalar hisoblanadi. Respublikamizda qorako‘l terilari bilangina emas, balki mahalliy noqulay iqflim va yaylov sharoitiga moslashganligi bilan ham qadrlidir. Boshqa chorvachilik sohalari kabi qorako‘lchilikni rivojlantirishda ham asosan ikki omil, ikki yo‘nalish hal etuvchi rol uynaydi. Bular naslchilik ishlarini yuritish va ozuklantirishdir.

Qorako‘l ko‘y zoti halq seleksiyasi natijasida yaratilgan bo‘lib ulardan olinadigan qorako‘l terilari o‘zining nafisligi, bejirimligi, pishiqligi, rang-barang tuslarda tovlanib turishi bilan jahon mo‘yna bozorida xamisha munosib baholangan. Biroq qorako‘lchilik sohaning asosiy mahsuloti bo‘lgan qorako‘l terilarini ishlab chiqarish manbai bulib qolmasdan, balki, arzon tannarxlarda go‘sht, jun va charm mahsulotlari ishlab chiqarish manbai hamdir. CHo‘llarni o‘zlashtirish va uning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xozirgi davrda qorako‘l qo‘ylarini urchitish cho‘l mintaqalari resurslaridan samarali foydalanishning yagona, iqtisodiy jihatdan asoslangan va maqsadga muvofiq yo‘lidir. Demak, qorako‘lchilikni rivojlantirish ijtimoiy – iqtisodiy masala bo‘lib, sohada iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishning yaqin yillarga mo‘ljallangan ustivor yo‘nalishlarini aniqlash uning taraqqiyotini belgilaydigan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Qorako‘chilikka ixtisoslashgan shirkat xo‘jaliklarida 2007-2008 y qish faslining o‘ta sovuq kelishi va shu yo‘ili va undan avvalgi bir necha ob-havo noqulay kelgan yillarda yaylovlar hosildorligining kamayib, quduq va buloq suvlarning kurib qolishi qorako‘lchilikka ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklar moliyaviy ahvolining og‘irlashuviga olib keldi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Muxtaram Prezidentimiz va Xuqumatimiz tomonidan chorvachilik sohasida, shuningdek qorako‘chilik soxasida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish borasida olib borayotgan siyosatlari o‘zining ijobiy natijalarini bera boshlaydi. Natijada kompaniya tizimidagi xo‘jaliklarda sohani rivojlantirish, sifatli va eksportbop qorako‘lchilik maxsulotlari ishlab chiqarish, eksport qilish, qorako‘l ko‘ylar bosh sonini ko‘paytirish, ularni suniy urug‘lantirish chorva mollari naslini yaxshilash borasida ijobiy ishlar amalga oshirilishigiga zamin yaratildi.

Kelajakda asosiy e’tibor eksport talablariga javob beradigan, raqobatbardjosh assortimentdagi korako‘ terilarini ishlab chiqarishga qaratiladi. SHu munosabat bilan 2011 y qora rangli qorako‘l terilarining 80-82% 1 navli, shulardan jaket 1 assortimentdagi terilar 5-7%, qovurg‘asimon assortimentdagi terilar 25-30%, yassigul assortimentdagi terilar esa 17-22% tashkil etishi 2015 yilga borib bu ko‘rsatkichni mutanosib ravishda 82-85, 10-12, 30-35 va 20-25% etkazish ko‘zda tug‘ilgan.

Oxirgi yillarga rangli qorako‘l terilariga bozor talabining ortishi uning sifatini yaxshilash va assortimentini kengaytirishni taqozo etmoqda. Ushbu holatini hisobga olgan xolda 2011 y 1 navli sur qorako‘l terilar salmog‘ini 80-82%, 1 navli ko‘k rangli terilar salmog‘i 78-80 % etkazish borasida sa’yi xarakatlar qilinmoqda.

Qorako‘l zoti genofondida to‘plangan qimmatli genotiplar mavjud. Bu genofond tarkibidagi qora, ko‘k, buxoro suriga mansub bo‘lgan populyasiyalar miqdoriy jihatdan etarli darajada bo‘lib, olib borilayotgan seleksiya-naslchilik ishlari ularning yanada kengayishini ta’minlanmoqda. Bu qimmatli genotiplardan naslli material sifatida foydalanish zotning salohiyatini yanada boyitishi mumkin. SHu nuqtai nazardan ularni saqlash va ko‘paytirish qorako‘lchilikning dolzarb muammolaridan biridir. Naslchilik ishlarini yuritish tizimiga asosan qorako‘lchilikda naslli mollarni etishtirish naslchilik zavodlari va naslchilik xo‘jaliklari zimmasiga yuklatilgan. Hozirgi kunda respublikada jami 104 qorako‘lchilik xo‘jaliklari mavjud bo‘lib ulardan 20 tasi naslchilik zavodlari, 9 naslchilik xo‘jaliklari makomiga ega.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Naslchilik zavodlari va xo‘jaliklari o‘z talablarini qondirish bilan bir qatorda tovar xo‘jaliklarini naslli mollar, ayniqsa, naslli qo‘chqorlar bilan ta’minlashlari lozim.

Qorako‘l qo‘y zoti tarkibida jami 30 yuqori mahsuldor zavod tiplari mavjud bo‘lib, ularning 9 tasi qora, 12 tasi sur, 5 tasi ko‘k, 2 tasi oq, 1 tasi guligaz va 1 tasi zarmalla rangli qorako‘l qo‘ylarning zavod tiplaridir. Ular asosiy naslliy yadro hisoblanib, zotning har tomonlama rivojlanishi ta’minlaydi.

Har bir sohadagi kabi kabi qorako‘lchilik sohasida ham muammolar mavjud. Qorako‘l qo‘ylarining irsiy saloxiyati faqatgina ularni to‘la qonli oziqlantirish sharoitida yuqori darajada namoyon bo‘ladi. SHu jihatdan cho‘l xududlarida yaylovlardan foydalanish, ularning holatini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Qorako‘lchilikka ixtisoslashtirilgan shirkat xo‘jaliklariga davlat tomonidan 11,7 mln ga er maydonlari uzoq muddatga foydalanishga topshirilgan bo‘lib, shundan 0,2 mln ga haydaladigan er maydonlari, 9,7 mln ga yaylovlar tashkil etadi.

Qorako‘lchilik xo‘jaliklari yaylovlaridagi mavjud suv inshoatlaridan uzoq vaqt foydalanish natijasida aksariyat shaxtali qujduqlar va skvajinalar suvi kamayib, etarli darajada suv chiqmay qolgan va yaylov suv quvurlarining bir qismi yaroqsiz holga kelib kolgan. Buning asosiy sababi, hozirgi vaqtda Respublikada mavjud yaylovlardagi suv inshootlarini keng qo‘lamdagi ta’mirlash va yangilarini barpo etish ishlarib olib borilmayotganligi, bu sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar tugatilganligidir.

Respublikamizdagi mavjud yaylovlarning holati so‘ngi yillardagi noqulay iqlim sharoiti va boshqa salbiy ta’sirlar natijasida yomonlashib, har yili 16,5 ming ga yaylov degradatsiyaga uchramoqda. Sungi 25 yil ichida degradatsiya hisobiga yaylovlar 412, ming ga kamaygan. YAylovlar hosildorligi ular joylashgan xududlarga bog‘liq holda 0,65-1,65 s/ga ozuqa birligini, respublika bo‘yicha o‘rtacha 1,1 s/ga ozuqa birligini tashkil etadi. Respublika bo‘yicha har yili yaylovlar hosildorligining pasayishi o‘rtacha 1,5% ni tashkil etmoqda. Bu muammo davlat miqyosida keng ko‘lamdagi yaylovlarning meliorativ holatini



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

yaxshilash bo‘yicha markazlashgan holda ajratilgan mablag‘lar hisobidan fitomeliorativ tadbirlar amalga oshirilmayotganligi oqibatida yanada chuqurlashmoqda.

